

MUNDARIJA

Kirish	2
1.Bob Muammoni o'rganishning ilmiy nazariy asoslari.	
1.1. Dizartriya nutq nuqsonini pedagogik,psixologik va maxsus adabiyotlarda yoritilishi.....	6
1.2. Yozuv jarayonining psixofiziologoik mexanizmi.....	13
1 bob bo'yicha xulosa.....	31
2. Bob Dizartrik bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.	
2.1. Dizartrik bolalar nutqini tekshirish metodikasi.....	32
2.2. Logopedik tekshirish natijalari.....	38
2 bob bo'yicha xulosa.....	51
3 .Bob Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish texnologiyasi	
3.1. Dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda yozuv jarayoni o'zlashtirilishining o'zigi xos xususiyatlari va qiyinchiliklari.....	52
3.2. Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish bo'yicha pedagogik tavsiyalar.....	58
Xulosa	66
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	68

Kirish

Bitiruv malakaviy ning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev "Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Mumkin qadar ko'proq iqtidorli yoshlarimizni ittifoqning eng ilg'or korxonalariga, shu jumladan, hatto, xorijiy mamlakatlarga, kerak bo'lsa, yangi texnologiya, yangicha ish tashkil qilishni o'rganish uchun Yaponiya, Amerikaga hamda boshqa joylarga yuborib, ularning o'qishiga, tajriba orttirishiga imkoniyat yaratish lozim. Iqtisodiyotimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq bo'ladi. Agar shuni qilmasak, bu yurishda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi"¹-deya e'tirof etadilar.

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy-madaniy xayotida amalga oshiralayotgan tub islohatlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan xisoblangan ta'limni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash,ular ongiga mustaqillik goyalarini singdirishdek muxim vazifalarni qo'yimoqda.Maktab,maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya oluvchi xar bir bolani zamon talabi asosida xar tomonlama shaklangan shaxs bo'lib,jamiyat ishlarida to'la va faol qatnashishi undagi nutqning to'g'ri rivojlanishi bilan chambarchas bogliq. Chunki, nutq-kishilararo aloqa quroli,milliy boylik xamda tarbiya,maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Zotan ta'lim va tarbiyada xikmat ko'p.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va xokimyat xamda ota-ona zimmasiga uni soglom, aqli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Davlat

¹Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" – T.: "O'zbekiston" 2017

va jamiyatning kelajagi yosh aalodni qanday tarbiyalashga va voyaga yetkazishga ko'p jixatdan bogliqdir.

Millat tafakkuri, ma'naviyat va madaniyatni ko'rsatib beruvchi, jaxon miqyosida tan olingan asosiy mezon –tildir. Demak, kishilarni mukammal, yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o'rin tutar ekan.

Bolada nutqning normal rivojlanishi unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga ,tevarak-atrof xaqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tushunarli taffakur qobilyatlari shakllanadi. So'zning axamiyati umumlashtiruvchi xisoblanadi va shu munosabat bilan u o'zida nafaqat nutq birligini balki taffakur birligini xam namoyon etadi.

Boda shaxsining xar tomonlama rivojida nutq benuqsonligining axamiyati katta. U yoki bu darajadagi nutq nuqsonlari bolaning ruxiy rivojlanishida, uning faoliyatida aks etadi. Ogir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishga ta'sir qiladi. Natijada o'qish va yozuv kamchiliklarini keltirib chiqaradi.

Korreksion pedagogika va logopediyada bolalarning yozma nutqidagi buzilishlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish muammosi o'z dolzarbligini xamon saqlib kelmoqda.

Differentsial yondashuv asosidagi maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik yordamning yo'qligi yozma nutq buzilishlarini ko'payishiga va mustaxkamlanishiga olib keladi.

Xozirgi sharoitda til ko'nikmalarin shakllantirishning yangi, yanada samaraliroq texnologiyaiga zaruriyat sezilmoqda. Nutqiy kamchiligi bo'lgan bolalarning yozma nutqidagi buzilishlarni oldini olish va ularni bartaraf etishning eng faol yo'llarini aniqlash xamda amaliyotga tadbiiq etish zamonaviy logopediyaning nazariy va amaliy jixatdan muxim masalasidir.

Sifatli ta'lim berish va bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yangilashga qo'yiladigan talablar xamda maxsus ta'limga extiyoj sezgan

bolalarni o'qitish va ularga korrektsion yordam berishda differentsiallashtirilgan yondashuvni amalga oshirish usullarini aniqlash ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Aynan shu mavzuni dolzarb deb olishimiz, shu toifa bolalarning yozma nutqini o'rganishga doir tadqiqot ishlari ,metodik tavsiyanomalar ,nutqiy nuqson tuzilishini xisobga olgan xolda korrektsion ish tizmining yo'qligi bo'ladi.

Bu muammo "Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish bo'yicha korrektsion pedagogik ish"deb nomlangan mazkur tadqiqot mazusini tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqot ob'ekti:

Maktabgacha 5-6 yoshli dizartrik bolalar .

Tadqiqot predmeti:

Dizartrik bolalarning yozuvidagi buzilishlarni oldini olish bo'yicha korrektsion pedagogik ish jarayoni.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

-maktadgacha yoshdagi dizartrik bolalarning psixologik va yosh xususiyatlarini xisobga olgan xolda logopedik metodlardan o'rinli va unumli foydalanilsa.

-korrektsion ishlarning mazmunli, samarali usullari aniqlanib,amaliyotga keng joriy etilsa:

- maxsus bolalar nutq bogchalarida korrektsion ishlarni o'tkazish uchun zarur ,maxsus sharoitlar yaratilib,bolalar korrektsion jarayonning sub'ektiga ,ya'ni faol ishtiriokchisiga aylantirilsa:

-logopedik-korrektsion ishlar jarayonida bolalarning psixologik, jismoniy va yosh xususiyatlarini xisobga olinsa logopediya amaliyotida korrektsion ishlarning samaradorligi yanada ortadi

Tadqiqot maqsadi: Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish bo'yicha tegishli pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Oldimizga qo'yilgan maqsaddan kelib chikib kuyidagi vazifalarni belgilab oldik tadqiqot vazifalari:

-tegishli falsafiy ,psixologik,pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va taxlil qilish asosida,dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning o'qish va yozuvidagi buzilishlarini o'rganish va oldini olish muxim logopedik muammo ekanligini asoslash;

-dizartrik bolalar yozma nutqini tekshirish va tekshirish natijalari mezonlarini ishlab chiqish;

- katta maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalar –yozma nutqdagi buzilishlarini oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodlari:

nazariy- tadqiqot muammosiga doir psixologik va pedagogik maxsus adabiyotlar taxlili,emperik-so'rovnomalar, kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, umumlashtirish va baxolash, tibbiy-pedagogik-psixologik xujjatlar va bolalar faoliyatini o'rganish, statistika –tajriba-sinov materialining miqdor va sifat jihatdan taxlili,olingan natijalarning statistik taxlili.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi , O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni (1997), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Prezidentimiz tomonidan olga surilgan ma'naviyat xaqidagi goyalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat Dasturlari, Sh.Mirziyoyevning Barkamol avlod tarbiyasiga oid asarlari va nutqlari ,L.S.Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning namoyon bo'lishi xaqidagi ta'limoti, R.E.Levina tomonidan ishlab chiqilgan nutq patologiyasini taxlil qilish printsplari, shark mutaffakirlarining bolani jismonan va ruxan tarbiyalash xakidagi asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi: Bitiruv malakaviy kirish, uch bob xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1bob Muammoni o'rganishning ilmiy nazariy asoslari

1.1 Dizartriya nutq buzilishini pedagogik, psixologik va maxsus adabiyotlarda yoritilishi

Qadimdan nutq kamchiligi sababini aniqlash, uni tuzatish kabi muammo ustida juda ko'p olimlar ish olib borganlar. Xatto, eramizdan avvalgi asrlarda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz risolalarida xam nutqiy buzilishlarga doir fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq xalqlari madaniyati dunyo madaniyati tarixida juda katta iz qoldirgan. Ulardan bizgacha ko'plab yozma yodgorliklar yetib kelgan.

Arastu (er.av. 384-322y) esa nutq jarayonini nutq apparati a'zolarining anatomik tuzilishi bilan boglaydi. U nutqdagi kamchiliklarning sababini inson nutq apparati a'zolarining noto'gri tuzilishi va kam xarakatchanligidan deb biladi .

Nutq patologiyasining eng dastlabki tasnifida artikulyatsiyani xar qanday buzilishi alohida guruxlarga ajratilgan va "dizartriya" termini bilan belgilangan edi.

Nutq buzilishlarini birinchi tasnifida A.Kussmaul barcha artikulyatsiya buzilishlari alohida guruxga ajratilgan va "dizartriya" termini bilan nomlangan. Kussmaul dizartriyaning artikulyatsiyaning buzilishi natijasi deb xisoblaydi. U tovushlar artikulyatsiyasi, ularni to'gri talaffuz qilish uzunchoq miyadagi harakat yadrolarining zararlanmaganligi bilan bogliq, deb takidlaydi. Agar uzunchoq miyadagi o'tkir va xronik kasalliklar harakat yadrolarining buzilishiga olib kelsa, talaffuzning noaniqligi, xatto tovushlar orqali o'z fikrini bildirish qobiliyatining yo'qolishi shaklidagi dizartriya kelib chiqadi. Kussmaul dizartriyaning "bazal", "kinezodik", "markaziy va intratserebral", "pereferik va ekstratserebral" shakllarini ajratadi.

Gowers dizartriya nutq buzilishini tserebral va bulbar shakllarga ajratgan. Froeschels dizatriyani o'rganib, uning quyidagi to'rt shaklini: piramidali, ekstrapiramidali, tserebellyar va peshona qism bilan bogliq shakllarini ajratadi.

Brain dizartriyaning markaziy va pereferik harakat neyroni jaraxatlanishi bilan bogliq shakllarini, kordinator va miopatik shakllarini ajratadi.

Neyrodinamik tamoyilga tayangan holda dizartriyaning eng mukammal tasnifi Peocher tomonidan ishlab chiqilgan.U dizartriyaning quyidagi shakllarini ajratadi.

- qobiq
- subkortikal
- pedenkulyar
- supranuklear
- bulbar nuklear
- serebellyar
- dientsefal
- mezeentsefal
- miya nervlari jaroxatlanishi bilan bogliq pereferik dizartriya
- chuqur sezuvchanlikning buzilishi bilan bog'liq dizartriya
- bosh miyaning diffuzli zaralanishida kuzatiladigan dizartriya(toksikozlar,postkontuzion xolatlar)
- epilnpsiyada kuzatiladigan dizartriya
- miasteniya kuzatiladigan dizartriya
- subkortikal ekspressiv afaziyada kuzatiladigan dizartriya(apraksik.)

Dizartriya perenatal ontogenez vaqtida rivojlanadigan kasallik xisoblanadi.

Kasallikning kechishi uning har bir turida bosqichlarga bo'linadi;

- erta
- boshlang'ich
- rezedual,
- kechki rezedual.(K.A.Semyonova.)

Dizartriya bolalarda asosan uch turda uchraydi.:harakat buzilishi,nutq buzilishi,intelekt buzilishi.

Dizartrik va sog'lom bolalar harakat,intelekt,nutq jarayonlarini solishtirganda dizartrik bolalarda bularning barchasi ortda qolgani kuzitildi.

K.A.Semyonova,S.E.Safaray, G.Tardien,K.Lindenmann

Mualliflar tomonidan ko'rsatilgan dizartriyaning shakllari artikulyatsiya buzilishlariga bogliq. Ular dizartriya ovozning buzilishi, nutqiy nafas, nutqning prosodik komponentlarining buzilishini ko'rib chiqmagan.

Grewell dizartriyaning sof va aralash turlarini farqlaydi. Aralash dizartriya nutqning motor buzilishlari bilan birga, diqqat va xotira jarayonlarining buzilishi qo'shib keladi. Sof dizartriya perefirik va markaziy xarakterlanuvchi neyronning buzilishi asosida distoniya xamda kordinator buzilishlar yotadigan boshqa dizartriya turlari kiritiladi.

Grewell nutqiy nuqsonlarning tasniflashda dizartriyaning boshqa nutq buzilishlari orasidagi o'rni ko'rsatib berdi:

- dizartriya – markaziy va perefirik nerv sistemasining organik jaroxatlanishi bilan bogliq bo'lgan nutq buzilishi.
- dislaliya- perefirik nutq apparatining anatomik kamchiliklari bilan bogliq bo'lgan artikulyatsiyaning buzilishi.
- Fiziologik talaffuz kamchiliklari – nutqiy rivojlanishning orqada qolishi.
- Ikkilamchi nutq nuqsonlari – eshitish qobilyatining pasayishi bilan bogliq
- Nutqning psixikaga bogliq buzilishlari.

SHunday qilib Grewell ning fikricha, dizartriya – bu bosh miya turli qismlarining jaroxatlanishi sababli nutqning buzilishi, shuning uchun u nafaqat artikulyatsiyaning buzilishi, balki nutqiy nafasning buzilishi, ovoz va prosodikaning buzilishini xam o'z ichiga oladi.

Harard Hugot [8, 67 b] dizartriya tushunchasiga piramidali, ekstra piramidali, tserebelyar harakterdagi umumiy motorika buzilishiga bogliq bo'lgan artikulyatsiya buzilishlarini kiritadi.

Dizartriyaning yaxshiroq tushunishga M.S. Margulisning ishlari katta ta'sir ko'rsatadi, u birinchilardan dizartriyaning motor afaziyadan aniq ajratildi va bulbar va tserebral shakllarga bo'ldi. Dizartriyaning tserebral shaklini yana kortikal va subkortikal turlarga bo'ldi.

L.B.Litvak dizartriyaning lokaldiagnostik tomoniga o'z e'tiborini qaratdi. Dizartriya muallif artikulyatsiyaning buzilishi deb tushunadi, biroq buni u noaniq izoxlaydi: artikulyatsiya buzilishiga nutqning temp, ritm va intonatsiyasining turli xildagi buzilishlarini kiritadi.

M.E.Xvattsev o'zining "Logopediya" kitobida markaziy xarakterdagi tovushlar talaffuzining buzilishini dizartriya deb nomlaydi: Dizartriya - nutq apparati va bosh miyada ular o'rtasidagi aloqalarning, uzunchoq miyaning qobigi va yadrosining organik jaroxatlanishi yoki funksional buzilishi natijasida kelib chiqadigan tovushlar talaffuzining buzilishi. Dizartriya o'zida tovushlar talaffuzi buzilishining ko'pgina bo'akllarini :tovushlarni buzib talaffuz qilishdan, to manqallangan noaniq talaffuzgacha namoyon qiladi. U dizartriyaning 2 shaklini ajratgan: organik va funksional. Ularning kelib chiqish sabablarini ochib bergan.

O.V.Pravdina dizartriya terminini tushuntirishda nevrologik yondoshgan. u dizartriya nutq harakat apparatining lokal jarohatlanishi darajasi asosida tasniflaydi. Pravdina dizartriyaning patogenezi va alomatlariga katta ahamiyat beradi. "Dizartriyaning xar bir shaklida logopedik ishlar metodikasi xarakat buzilishlarining patogenezi muvofiq bqlishi kerak, ya'ni u patogenetik jixatdan asoslangan bo'lishi kerak."

Ye.N.Vinarskaya birinchi bo'lib, miyasi jaroxatlangan katta yoshli bemorlarda dizartriya kompleks neyrolingvistik o'rganadi va dizartriyaning bulbar, psevdobulbar, ekstrapiramidali, miyachali, qobiq, mezentsefal-dientsefal shakllarini ajratadi.

Bolalar tserebral falajida dizartriya to'liq aniq tasnifini M.B.Eydinova va Ye.N.Pravdinalar taklif etdilar. Ularning fikricha, dizartriya bolalar tserebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65-85% ida kuzatiladi. Bolalar tserebral falajining ogir shaklida bola umuman xarakatsizlanib koladi va bunday bolalarning deyarli xammasida dizartriya (anartiya) kuzatiladi.

Tadqiqotchilar L.V.Melexova, E.F.Sobotovich, A.F.Chernopolskayalar dizartriyaning yengil shaklini o'rgandilar va ularni diagnostikalash metodlarini ishlab chiqdilar. Ye.F.Sobotovich va A.F.Chernopolskayalar 53 ta bolada tadqiqot

o'tkazib nutq xarakat apparati motor funksiyasining to'liq shakllanmaganligi, artikulyatsion mushaklar faoliyatining sustligi natijasida kelib chiqadigan tovushlar talaffuzining buzilishi psevdobulbar dizartriyaning yengil shakliga kiritdilar. Ixtiyoriy harakatlarni bajarishdagi qiyinchiliklar bilan bogliq bo'lgan tovushlar talaffuzining buzilishini qobiq dizartriyasiga kiritdilar.

R.I. Martinova esa dizartriyaning yengil shaklidagi va funksional dislalik bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini, nevrologik darajasini, psixologik-pedagogik darajasini tekshirib, ularni bir-biri bilan taqqoslaydi va shunday xulosaga keldi:

- dizartriyaning yengil shaklidagi bolalar funksional dislalik bolalarga nisbatan jismoniy rivojlanishda orqada qoladi:

- dizartriyaning yengil shaklida yashirin formadagi parezlar, giperkinezlar, artikulyatsion va mimik muskullar tonusining buzilishlari kuzatiladi.

- ruxiy-asab funksiyasining buzilishi funksional dislaliyaga qaraganda, dizartriyaning yengil shaklida ko'proq kuzatiladi.:

- funksional dislalik bolalarning so'z boyligi yetarlicha, iboralari to'liq, ovozi baland, nutqning tempi o'rtacha, dizartriyaning yengil shaklidagi bolalarda faol lugat bir oz cheklangan, iboralar qisqa, ovoz-pastroq, nutq tezlashgan, tushunarsiz. funksional dislaliya va dizartriyaning yengil shakliga xos xarakterli belgi bu-tovushlar talaffuzining buzilishi.

Dizartriya bolalar tserebral falajida to'liq o'rganilgan (M.B. Eydinova, E.N. Pravdina- Vinarskaya : K.A. Semenova, E.M. Mastyukova, I.I. Panchekova, L.A. Danilova va b) chet el adabiyotlarida bu G. Bohme, M. Climent, T.E. Twitchel, R.D. Neilson, N.O. Dwerlarning ishlarida yoritilgan.

Nutqning atrofdagilarga tushunarlik darajasi bo'yicha dizartriyaning tasnifi frantsuz nevropatologi Tardien tomonidan ishlab chiqilgan. U bolalar tserebral falajida nutq buzilishining to'rtta darajasini ajratdi.

1) tovushlar talaffuzidagi buzilishlar, faqatgina muttaxis tomonidan bolani tekshirish jarayonida aniqlanadi:

2) talaffuzdagi kamchiliklar xammaga sezilarli .biroq nutq atrofdagilarga tushunarli bo'ladi:

3) nutq faqat bolaga yaqin kishilarga tushunarli bo'ladi:

4) nutqning yo'qligi yoki xatto bolaga chqin kishilarga xam tushunarsizligi.Tovushlar talaffuzi buzilishining to'rtinchi darajasi,moxichtan,o'zida anartriyaning namoyon qiladi.

K.A.Semyonovning fikricha,bolalar tserebral falajida ko'proq dizartriyaning miyachali va psevdobulbar shakllari uchraydi.Bunday bolalarda nutq harakat analizatorining kinestetik sohasida yetishmovchiliklar kuzatiladi. Kinestetik bo'limning sustligi nutqiy harakatlarning rivojlanishiga xalaqit beradigan mimik-artikulyatsion muskullarning apraksiyasini keltirib chiqaradi. U psevdobulbar falajning uchta klinik shaklini ajratadi:paralitik,ekstrapiramidali,miyachali."nutq mushaklari jaroxatlangan,ba'zi bir tovushlarni tushunarsiz talaffuz qilishdan to nutqning butunlay yo'qolishigacha bo'lgan nutq buzilishlari kuzatiladi.nutq ko'pincha ogirlashgan va sekinlashgan bo'ladi. Xayotning birinchi oylarida yutishda qiynaladi,uzoq vaqtdan so'ng bola so'lakning ogzidan oqishiga yo'l qo'ymaydi va uni yutadi."

Bolalar tserebral falajida dizartriyaning turli xil shakllarining namoyon bo'lishi ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rsatilgan.V.A.Muratov ta'kidlashicha,bolalar tserebral falajida dizartriya spastik va paretik xarakterga ega bo'ladi.Moxiyatan,bu dizartriyaning tasniflashdagi birinchi urinishlardan iborat.

S.A.CHugunov ,Guttsmann, M.M.Prisman lar bolalar tserebral falaji odatda giperjenezlar bilan birga keladi deb ta'kidlaydilar va hozirgi kunda giperkinetik dizartriya nomi bilan yuritiladigan ,dizartriyaning shaklini izoxlab beradilar.

BTSF da dizartriyaning to'liq va aniq tasnifini M.B.Eydinova ,E.N,Pravdina-Vinarskayalar ishlab chiqdilar va bolalar psevdobulbar falajining quyidagi shakllarini ajratadilar: paralitik, spastik, giperkinetik, aralash, rudimentlar yoki yashirin.

L.A.Danilova BTSF da nutqiy va ruxiy rivojlanishni koorektsiyalash metodlarini ishlab chiqqan.U tserebral falajlangan maktadgacha yoshdagi bolalar (5

yoshdan 7 yoshgacha)xamda tayyorlov uchinchi sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan korreksion ishlarning dasturini ishlab chiqqan.Tayyorlov 3 sinf o'quvchilari uchun dastur boshlangich maktabning to'rt yiliga mo'ljallangan va TSF bolalar nutq va bilish jarayonlaridagi nuqsonlarni maktabdagi ta'lim jarayonida bartaraf etishni ko'zda tutadi.

E.M.Mastyukova, M.V.Ippalitova lar "TSerebral falajlangan bolalar nutqining buzilishi "nomli risolasida artikulyatsion motorika,nafas,ovoz buzilishlari xaqida yozib, ularning faoliyatini normallashtirish,rivojlantirish uchun mashqlar tizimini ishlab chiqdilar.²

E.F.Arkipova TSF bolalar nutqqacha rivojlanishining to'rtta darajasini ko'rsatib berdi.

1-daraja.ovoz faolligining yo'qligi

2-daraja differentsiallashtirilmagan ovozning mavjudligi

3-daraja gugulash

4-daraja bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi.³

U TSF bolalarda nutqqacha bo'lgan davrda korreksion –pedagogik ishlar tizimini ishlab chiqdi.

Dizartrik bolalarning klinik-psixik xususiyatlari Ye.M,Mastyukova ,

L.O.Badolyan ,L.T.Jurba,E.M.Mastyukova, L.T.Jurba,E.M.Mastyukova asarlarida yoritilgan.

Aqli zaif bolalarda dizartriyaning namoyon bo'lishi G.E.Suxareva ,M.S.Pevzner tomonidan tadqiq qilingan .

Gidrotsefaliya bilan og'rigan bolalarda dizartriyaning namoyon bo'lishi M.S.Pevzner, ,L.I.Rastyagaylova,E.M.Mastyukova larning asarlarida yoritilgan .

Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda dizartriya M.S.Pevzner,K.S.Lebedinskaya ,V.I.Lubovskiy lar tomonidan o'rganilgan .

L.S.Lopatina,N.V.Serebryakova lar dizartriyaning yengil shaklidagi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik-fonematik,leksik-grammatik

² Mastyukova Ye.M Lechebnaya pedagogika .M-Vlados,1997

³ Arkipova Ye.F. Styortaya dizartriya u detey Uchebnoe posobie M:AST AstrelXranitel,2013

tomonidagi buzilishlarni o'rganib,ularni bartaraf etish bo'yicha metodika ishlab chiqdilar .

Dizartriya da nutqning umumiy rivojlanmaganligi xarakterlidir,unda nutqning tovush,leksika,grammatik tomonining to'liq rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi.Buning natijasida ko'pchilik dizartrik bolalarda o'qish va yozuvda kiyinchiliklar kuzatiladi.

Yuqorida berilgan adabiyotlar taxlilidan ko'rinib turibdiki,biz o'rganayotgan muammo ilmiy jixatdan o'rganilmagan.SHu sababli biz aynan shu muammoni o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

1.2 Yozuv jarayonining psixofiziologik mexanizmi

K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek:"So'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish kerak,bunda so'zlarni tashkil qiluvchi har bir tovush eshitalishi va farqlanishi kerak,- bu to'g'ri yozishning bosh asosidir "

Yozuv jarayoni ko'p darajali qurilishga ega bo'lib,ko'p miqdorli operatsiyalarni o'z ichiga oladi. A.R.Luriya "Yozuv psixofiziologiyasi ocherklari" nomli kitobida yozuvning quyidagi operatsiyalarini ajratib ko'rsatadi:

- so'zning tovush tuzilishini taxlil etish yozuv jarayonining eng murakkab operatsiyalaridan biri xisoblanadi.
- navbatdagi operatsiya –so'zdan ajratib olingan fonemalarni xarfning muayan obrazi bilan boglash xisoblanadi.
- yozuv jarayonining keyingi operatsiyasi-qo'l xarakatlari orqali xarflar shaklini aks ettirishga kirishiladi.

Yozuv jarayonining birinchi bosqichi yozilishi kerak bo'lgan so'zni tovush tarkibini taxlil qilish xisoblanadi.Bu bosqich o'z ichiga bir nechta operatsiyalarni qamrab oladi:diktovka ostida yozayotgan odam qabul qilayotgan so'zni yoki fikrni yozishda tovushlar qatoridan so'zni yozish uchun birinchi tovushni va keyin boshqalarini ajratib olishi kerak.Bu vazifa oson emas.Faqatgina ajratib talaffuz qilinadigan qator ochiq bo'g'inlardan tashkil topgan so'zlarda tovushlar ketma-ketligini aniqlash oson kechadi.(da-da,ma-shi-na kabi)Yopiq bo'g'inlardan iborat

,shuningdek qo'sh undosh kelgan so'zlarda zarur tovushlar ketma-ketligini aniqlash anchagina qiyin vazifadir. Bu yana shunday xollarda murakkablashadiki, bola zarur so'zni bir necha marta uni bo'g'inlarga ajratmasdan, uni bir butunligicha talaffuz qilishga xarakat qilsa bunda ko'p xolalarda kuchli talaffuz qilinuvchi bo'g'in almashtiriladi, kuchsiz talaffuz qilinuvchi bo'g'in yoki xarf umuman tushurib qoldiriladi. Ba'zan bolaning yozuvida bo'g'inlar o'rnini almashtiriladi, tabiiyki bu og'zaki nutqning rivojlanishini birinchi bosqichidagi nuqsonlar bo'lib, ular psixologiyada aktitsipatsiya, masalan; oyna so'zi o'rniga onya, noya kabi yozilishi; eliziyalar, (tushurib qoldirish), M: "sabzi" o'rniga "sabi"; persevaratsiyalar (aloxida tovushlarni takrorlash), kontaminatsiyalar (ikkita murakkab bo'g'inlarni bitta qilib yozish, u o'z ichiga ikkita so'zni bo'g'in elementlarini oladi.) va o'rin almashtirish deb nomlanadigan nuqsonlardir.

So'zni tashkil etgan tovushlar ketma-ketligini ajratish nutqdan ajratish, uni aloxida tovushlarga ajratish birinchi operatsiya xisoblanadi.

Ikkinchi bosqichi birinchi bosqichga bog'liq bo'lib, eshitilayotgan tovushlarni aniq nutqiy tovushlar fonemalarga ajratish. Bu vazifa oson vazifa emas faqatgina so'z aniq va ikki xil talaffuz qilinmaydigin elementlardan tuzilgan bo'lsagina tovushlarni aniqlash oson kechadi. agarda so'z tarkibida talaffuziga ko'ra farq qiladigan tovushlar bo'lsa, (jarangli tovushning jarangsiz jufti) bola zarur fonemani talaffuziga ko'ra yaqin tovushdan ajrata olishi kerak. Bu vazifani bolalar o'zlashtirib oladi., ammo ba'zi xollarda "jo'ja" o'rniga "cho'ja" yozishlari bu topshiriqlarni egallashdagi qiyinchiliklarning qoldig'i sifatida namoyon bo'ladi. Ancha katta qiyinchiliklar undoshlar ketma -ket kelganda ularni aloxida elementlarga ajratishdir. Pedagoglar shuni yaxshi bilishadiki, bu vazifa juda katta mexnat talab qiladi, bir necha oy o'qitilgan o'quvchi katta qiyinchiliklar bilan aloxida tovushlarni ajrata oladi. Xarqanday xolatda xam tovushlar taxlili va tovushlarni aniqlash bo'yicha ish yozuv jarayonining ikkinchi operatsiyasi bo'ladi, chunki tasodifiy talaffuziga ko'ra mavxum va umumiy tovushlar kompleksidan ajratilgan, so'zni tashkil etuvchi fonemalarga keyinchalik yozishning asosi bo'lishi mumkin. Tovushlarni taxlil qilish va ketma-ketligini

saqlash, tovushlarni ajratish va aniq fonemalarga aylantirish murakkab yozuv jarayonini amalga oshirishning birinchi zarur bosqichi xisoblanadi.

Yozuv qo'nikmalarini rivojlantirishning boshlang'ich bosqichida bu jarayonlar to'laligicha ongli tarzda kechadi, keyinchalik esa u avtomatlashgan tarzda amalga oshiriladi: ajratilgan fonemalar va ularning kompleksi ko'ruv grafik sxemasiga o'tkazilishi kerak. Xar bir fonema keyinchalik yozilishi kerak bo'lgan mos xarfga aylantirilishi kerak. Agar taxminiy tovushlar taxlili yetarlicha aniq o'tkazilsa, nutqdagi tovushlarni xarflarga almashtirish qiyinchilik tug'dirmaydi. Yozuvga o'rgatish shuni ko'rsatadiki, bu ko'nikma oson o'zlashtiriladi, faqatgina ba'zi xollardagina o'qituvchini disgrafik bola bilan aloxida ishlashi talab etiladi. Faqatgina xarflarning yozilishini almashtirilishi va adabiyotlarda, "oynavand" yozuv nomi bilan mashxur nuqson shuni ko'rsatadiki, zarur grafemani xotirada saqlash xar doim ham oson kechmaydi va psixologiya xam har doim zarur xarfni va uning grafik yozilishini eslab qolishdagi qiyinchiliklarni xisobga olishi kerak.

Malakali o'qituvchilar yaxshi biilishadiki, ko'p xollarda 1-sinf o'quvchilari yozuvda Ye va Z yoki b va d xarflarini almashtirishadi, "sh" xarfini "m" yoki "i" xarfini "p" xarfi shaklida ifoda etadilar, bu xarflarning fazodagi o'xshash elementlarini farqlay olmaydi. Ba'zi bolalarda (ko'p xollarda chapaqaylarda) bunday qiyinchiliklar ancha keskin shakllarda bo'ladi: bola tezda qaysi tomondan boshlab yozish kerakligini aniqlay olmaydi, yozuvni o'ng tomondan yozish o'rniga chap tomondan qarshi yo'nalishda va ba'zan butun bir bo'g'inlarni oynavand yozadi.

Bu qiyinchiliklar oson bartaraf etiladi va yozuvga o'rgatishga xech qanday to'sqinlik qilmaydi. Yozishga endi o'rganayotgan bolalarda ko'p xollarda xarfni zarur o'rnini saqlashdagi qiyinchilik va xarflarni tushurib qoldirish kuzatiladi, bu xarflarni zarur yozilishini saqlab qolishdagi qiyinchiliklardan emas, yozilayotgan so'zdagi elementlarni tovush ketma-ketligini saqlashdagi qiyinchiliklar asosida sodir bo'ladi.

Uchinchi va so'ngi bosqich yozuvda optik belgilarni zarur grafik belgilar xarflarga almashtirishdir. E.V. Guryanov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yozuv

tarkibiga kiruvchi so'nggi bosqich o'zgarishsiz qoladi va aynan u turli xil qurilish bilan aks ettirilib,yozuvni tilni egallashdagi turli darajalarni xarakterlashini ko'rsatadi.Agar biz xar bir xarfni yozish uchun xarakat ko'nikmalarin rivojlvntirish kerakligini ko'rgan bo'lsak,bunda xar bir xarakat maxsus anglangan xolda bajariladi,keyinchalik bu aloxida elementlar birlashtiriladi va yozishni yaxshi egallagan odam birlashtirilgan belgilar orqali birlamchi tovush komplekslarini yoza boshlaydi. Xar qanday rivojlangan yozuvni xarakterlovchi rovonlik va birlamchi tovushlarni oson biriktirish ,rivojlangan yozuv jarayoni avtomatlashgan xarakterda ekanligini va butun tovushlar kompleksi avtomatlashgan xarakterda yozishga o'tganligini ko'rsatadi.Barcha bayon etilganlar yozuv jarayonining "ideamotor" akt deb xisoblashadi,uni ko'pchilik shunday tasavvur qilishni xoxlashagan va uning tarkibiga ko'ruv doirasidan,shuningdek xarakat doirasidan tashqaridagi bevosita yozuvni amalga oshirishda ishtirok etadigan ko'pgina psixik jarayonlar kiradi.Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek ,yozuv jarayonining psixologik mazmuni psixologiyaga yaxshi ma'lum ,ammo bu o'quvchilarda to'g'ri yozishni o'zlashtirishlari uchun yordam beradigan ,yozuvning psixologik komponentlarini ko'rsatib bera oladi deb ayta olmaymiz.Bir tomondan ,aynan yozuv ko'nikmasini rivojlantirishning turli bosqichlarida yozish bir xil bo'lmaydi,ko'rsatib o'tilgan omillarning xar biri bir xil rol o'ynaymaydi va turli psixologik mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi

Nevrologiya,shuningdek psixologiyada yozuv jarayonini miyada tashkil etilishi muammosini o'tgan asrning oxirlarida juda oson xal etishgan.O'sha vaqtdagi psixologiya namoyondalari tadqiqotlari yozuv jarayoni va bosh miya qobig'idagi murakkab psixik funktsiyalar o'choqlarini quyidagicha xal etishgan.Ular nutq eshituv ,nutq ko'ruv va nutq xarakat markazlari bilan maxsus "yozish markazi" xaqida xam gapirish mumkin deb xisoblangan;ular bu markazni chap yarimsharlarda joylashgan xarakat markazining o'rtasida,qo'l muskullari yaqinida joylashgan deb taxmin qilingan.tadqiqotchilar yozuv jarayoni xaqida xarakat jarayoni degan qat'iy tasavvurdan kelib chiqib,miya maydonlarining tor doiradagi chegaralariga oson tayanishgan.Bunday qat'iy qarashni qabul qilish mumkin deb bo'lmaydi.Yozuv

jarayoni shunchalik murakkabki, u o'z ichiga turli xil komponentlarni olib, ular boshdanoq qat'iy chegaralangan miya maydonlarida uni "tarqalishi" mumkin emasligini ko'zda tutadi va bu murakkab jarayonni bajarish uchun miya maydonlari bilan o'zaro bog'liq funktsional tizimlar, boshqacha aytganda yozuv jarayonini amalga oshirish uchun zarur qator miya maydonlarining o'zaro ishlashizarurligini ko'rsatishgan. Oxirgi 10-15 yil davomida olingan ma'lumotlar bu xolatni to'liq tasdiqlaydi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bosh miyadagi jaroxatlar, qon quyilish katta xajmdagi shishlar, deyarli chap yarimshardagi xar bir maydonning, tepa, yuqori chap peshona va chap chakka qismlarning jaroxatlanishi yozuv jarayonining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin va amalda bunday buzilishlar katta foizdagi xolatlarda uchraydi. Bu shundan dalolat beradiki, tilga olingan maydonlar miyaning funktsional tizimiga kirib, ular xar biri yozuv jarayonini ta'minlashda ishtirok etadi bu xar bir maydonning me'yorida xolati bu jarayonni muvoffaqiyatli kechishi uchun zarur shuningdek xar bir maydon umumiy miya faoliyatini tashkil etishda o'ziga xos bevosita funktsiyalarga ega. To'liq asoso bilan o'uni aytish mumkinki, masalan chap yarimsharlarning chakka qismlarin buzilishi yozuv jarayonini buzilishiga olib keladi, chunki aynan shu bo'lim nutq tarkibidagi tovushlarni ajratish va farqlash imkonini yo'qotadi. CHap chakka qism jaroxatlangan bemorlarda eshituv materialini mos xarflarda ifodalash yo'qoladi. SHuningdek, shuni aytish mumkinki, bosh miyadagi ensa qismining jaroxatlanishada eshitib taxlil qilish to'liq saqlangan bo'ladi, yozuv jarayoning buzilishi bunda boshqa zarur shart-ko'ruv jarayoni, mo'ljal olish komponentlarining buzilishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday farazlarni yana yozuv jarayonida qatnashadigan boshqa yuqorida ko'rsatilgan bosh miya maydonlari xaqida xam aytish mumkin. Avvalo yozuvni amalga oshirishda zarur bo'lgan eshituv taxlilini rolini o'rganishga to'xtalamiz, u bevosita bosh miya qobig'ining chakka qismini funktsiyasi bilan bog'liq xisoblanadi. Ko'pgina morfologlar, fiziologlar va klinitstlarning tadqiqotlaridan ma'lumki, chap yarimsharning chakka qismini yuzasi o'z ichiga "ikkilamchi" bosh miya bo'limlarini oladi, uning buzilishi tovush analizi va sintezining buzilishiga olib keladi. Anatomik va fiziologik tadqiqotlar odamning chakka qismi tolalari, ikki turdagi maydonlarga

kelib tutashib bosh miyani pereferik eshituv organi bilan bog'laydi, bu maydonlar birlamchi eshituv qobig'i deb nomlanadi, Bu maydonlarning bir qismi (chap yarimsharlarning chakka qismining orqa yuqori bo'limlarida joylashgan) nutqiy tovushlarni idrok etishni va ularni taxlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bosh miyaning chap chakka qismi jaroxatlangan bemorlar aloxida ovoz tonlarini yetarlicha yaxshi eshita oladi, lekin fonetik o'xshash tovushlarni idrok etish va farqlash imkoniyatiga umuman ega bo'lmaydilar. Bunday bemorlarning talaffuziga ko'ra yaqin (b) va (p), (d) va (t), (z) va (s) tovushlar aloxida tovushlar emas, balki bitta farqlanmaydigan tovushdek idrok etiladi. Nutqiy tovushlarni aniq farqlashdagi buzilishlari natijasida bemor so'zdagi tovushlarni aniqligi va ajratilishini yo'qotib bu so'zlarni ma'nosini yaxshi bilmay qoladi va talaffuziga ko'ra o'xshash so'zlarni almashtira boshlaydi.. Tabiiyki bolada nutq va eshituvni farqlashni rivojlanmaganligini bunday bolalarni yozishga o'rgatishda katta qiyinchiliklarga olib keladi. Zarur tovushlarni aniq ajratish va qobilyatining yo'qligi bolani yozish uchun zarur muxim shart-sharoitlardan maxrum bo'ladi va uni yozishga o'rgatishni an'anaviy metodlar bilan oson o'rgatish mumkin emas. R.M. Boskis va R.I. Levin va defektologiya instituti pedagogik fanlar akademiyasida bunday xolatlarni chuqur o'rganishgan va ularni maxsus tadqiqotlarda tasvirlashgan.

Endi yozuv jarayonida yozayotgan odamning artikulyatsiyasining rolini o'rganishga to'xtalib o'tamiz.

Savodga o'rgatishning boshlang'ich bosqichini kuzatish shuni ko'rsatadiki o'quvchi yozayotganda har bir so'zini aytib yozadi.. To'g'ri maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha o'quvchilarga yozayotgan so'zlarni aytib yozishlarini taqiqlash, ularga masalan, og'izlarini yopib yozishni taklif etishni o'zidayoq ularning yozishlari yomonlashgani, tovushlarni tushurib qoldirishi va so'zlarni noto'g'ri yozilishi uchun yetarli bo'lar ekan.. Amaliyotning ko'rsatishicha, talaffuz nuqsonlariga ega va ular yozayotgan so'zlarni to'g'ri ayta olmaydigan bolalar savodga o'rgatishda katta qiyinchiliklarga duch keladi va uzoq vaqt gapirishdagi nuqsonlari bilan bog'liq ravishda yozuvda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yishda davom etadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha gapirish jarayoni yozishda rol o'ynaydi. Yana aniqroq natijalarni bosh miyadagi aloxida maydonlarni jaroxatlanganligini kuzatish beradi, bunda inson zarur artikulyatsiyani topa olmaydi va nutqi qo'pol buziladi. Fiziologlarning maxsus tadqiqotlarini ko'rsatishicha, bizning xaralarimizni tashkil etishda nafaqat xarakat (effektor) impulslar balki sezgi qo'zg'atuvchilari (afferent) xam rol o'ynaydi. Zarur xarakatni tashkil etish uchun shu xarakatni bajarishga mos muskullar guruxiga impulslar yo'naltirilishi kerak, shu impulslar kuchi bilan muskullar xarakatga kelishi lozim. SHu narsa ma'lumki, buning uchun afferent impulslarning doimiy saqlash kerak, chunki ular tana organlari tizimini, uni hozirgi vaqtdagi xolati xaqidagi signallar berishi kerak. Mana shu funktsiyalarni bosh miyaning tepa, "orqa markaziy" bo'limlari bajaradi. Bosh miyaning bu bo'limlari kinestetik sezgilari sintez qiladi va bo'lg'usi xarakatlarga mos tizimni yaratadi. Qator olimlar tomonidan bosh miyaning aynan shu maydonlari jaroxatlanishi nafaqat sezgirlikning buzilishiga olib keladi, u sub'ekt harakatlari zarur afferent impulslarni olishni yo'qotishiga olib keladi, o'zining aniq xarakterini yo'qotadi. Ancha keskin xolatlarda bu xodisa xarakatlarni to'liq boshqara olmaslikka olib kelib, u afferentni parez deyilib, o'ziga xos harakat buzilishlariga olib keladi. Ancha sust ifodalangan xarakatlarda bunday buzilish harakatlarini yo'qolishiga olib keladi, bunda sub'ekt tezda zarur harakatni topa olmaydi, muskullar tizimiga ko'ra yaqin harakat aktlarini almashtiradi va zarur harakatni "paypaslab topish" uchun ko'p kuch sarflaydi. Bunday nuqsonlar "afferent apraktsiyalar" nomini olgan.

Ma'lumki bosh miyadagi orqa markaziy maydonning bunday buzilishi nutqni tashkil etuvchi nozik artikulyator xarakatlari qurilishida o'z aksini topadi.

Bunday xollarda bemor aloxida so'zlar va xatto qisqa iboralarni yaxshi tushunadi, unda nutqni intonatsion tushunish saqlanib qoladi. Ammo bunday bemor ko'p xollarda zarur so'zlarni talaffuz qilish qaytarish qobilyatiga ega bo'lmaydi va uning zarur afferent korrektsiyasidan maxrum, artikulyatsion apparat ishi noaniq bo'ladi, shuningdek boshqa xarakatlari aniqligi xam yo'qoladi. Zarur tovushni talaffuz qilishga xarakat qilib, bemor samarasiz zarur tovush yoki tovushlar kompleksini

talaffuz qilish uchun til va lablarning kerakli xarakatlarini topishga urunadi. U buni uddasidan chiqarolmaydi. Qo'pol jaroxatlarda u umumiy tovushlarni talaffuz qila olmaydi, engilroq jaroxatlarda u zarur artikulyatsion xolatni topa olmaydi, ko'p xollarda artikulyatsion jixatdan o'xshash tovushlar artikulyatsiyasiga almashtiradi.

Agar to'g'ri artikulyatsiya yozuv jarayoniga tayyorgarlikning asosiy sharti bo'lsa, aynan biz keltirgan xolatlarda biz yozuv ko'nikmalarining buzilishiga duch kelamiz va bu nuqsonlar shunisi bilan ahamiyatliki, bu holatda miya buzilishlari artikulyatsiyalarning tashqi buzilishiga olib kelmaydi, balki ichki umumlashgan artikulyatsion tizimni, umumlashtirilgan artikulemalarni buzilishiga olib keladi. Bunday buzilishni o'rganishgan qator olimlar (M.S. Blinkov, A.R. Luriya, L.K. Nazarovalarga) bunday yozuv buzilishlari haqiqatdan xam bunday xolatlarda o'rin egallashini aniqlashgan. ⁴Ma'lumki yoritilayotgan xollarda bevosita artikulyatsion tizimlarni yo'qotilishi bilan bog'liq xolda bemorlarda so'zning tovush tarkibini aniqlash va yozish buziladi.

Yozuvning keyingi boqsichi tovushlarni grafik obrazlarga aylantirish, "fonemalarni" "grafemalarga" o'tkazish bu jarayon bolalar tomonidan juda erta o'zlashtirilsa va tovushlarni harf obraziga o'tishi, ancha oson, ammo bu ham qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun yozishni endi o'rganayotgan o'quvchilar ko'pincha "h" va "q" xarflarni qanday yozilishini unutib qo'yadi va ularni "k" va "g" va boshqalar bilan almashtiradi. Optik jihatdan yozilishi qiyin harflarni almashtirishda va ayniqsa harflarni fazodagi joylashuvini farqlashdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ko'pincha bunday shakldagi kamchiliklar oynavand yozuv deb nomlangan nuqsonlarda aks etadi, bola yozilishiga ko'ra yaqin harflarni almashtiradi b va d, n va m, p, q, y, l, i va u xarflarini ba'zan oynavand yo'nalishda aks ettiradi. Ko'pincha bu oynavand yozuv bolalarda yaqqol yoki unchalik yaqqol bo'lmagan xolda paydo bo'ladi. Ammo bu xolatlarning ko'pchiligida yozuvda anchagina nuqsonlarni ko'rish mumkin bo'lib, ular xarfni yozish jarayonidagi qiyinchiliklar yoki kamroq xollarda berilgan tovushni ifoda etish uchun zarur xarfni

⁴ Luriya, A.R. «Osnov neyropsixologii» M-1993

topishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu turdagi nuqsonlar bosh miya qobig'ining ensa qismining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, insonni ko'ruv idrokini ko'ruv sezgisiga, murakkab optik obrazlarga aylantiradi va ko'ruv tassavurlarini farqlaydi va saqlaydi, va oxir oqibat ko'ruv shakllari sifatida aks ettiradi.

Ko'p sonli kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bosh miyadagi ensa tizimining jarohatlanishi aloxida ko'rish belgilarini bir butun obraz qilishdan to'xtaydi, yoki insonni fazoda mo'ljal olishi buziladi. Ko'p xollarda fazoda mo'ljal olishning buzilishi shunga olib keladiki, bemor zarur imo-ishoralarni to'g'ri ko'rsata olmaydi, barmoq bilan imlab chaqirish o'rniga barmoqlarini teskari tomongan xarakatlantiradi. Bu barcha belgilar shuni ko'rsatadiki bunday bemorlarda fazoda mo'ljal olish buzilgan va bemor asosiy fazoviy koordinatalarni aks ettirishga qodir emas. Ma'lumki, bu nuqson bemorning yozuvida xam aks etadi. Alifbodagi barcha harflardan ko'pchiligi masalan "o" xarfi fazoda aniq o'rniga ega bo'lmaydi, ularda bir-biridan chap va o'ng tomonlarni yozilish "fazoda mo'ljal olinmagan" bo'ladi. Boshqa xarflarning kattagina qismi esa simmetrik qurilishga ega, ammo pastdan tepaga aniq mo'ljal olgan, h, y, q, d, xarflari bir-biriga oynavand xisoblanib, bir xarfning yuqori qismi boshqa xarflarning pastki qismiga mos keladi. Nixoyat alfavitning uchinchi qismi ham harflarni shunday fazoviy joylashuviga ega, ammo o'ng chapga o'xshash, K xarfining yozma ko'rinishi oynavand yozuvda shunga o'xshash xarfni aks ettiradi, H, D, B, G xarflarni assimetrik qurilishga ega bo'lib, o'ng tomoni chap tomonga o'xshamaydi. Tabiyki bunday xarflarni yozish uchun fazoda to'g'ri mo'ljal olishni saqlay olish kerak, agar u buzilsa harflarni to'g'ri yozib bo'lmaydi.

Bosh miya qobig'idagi ko'ruv va eshituv maydonlarini jarohatlanishidagi yozuv buzilishlarni tadqiq qilish yana bitta qiziqarli savol qo'yish imkonini beradi. Ma'lumki, yozuv turli tillarda turli printsplarda quriladi. Agar rus tilida yozuv asosan fonetik printsp asosida qurilsa, (so'zning tovush tarkibi yoziladi), boshqa tillarda (masalan Xitoy) yozuv umuman boshqacha irografik xarakterda bo'ladi. (butun bir tushunchani bildiruvchi maxsus belgilar), nixoyat uchinchi xil tillari (masalan

frantsuz va ingliz tillarida yozuv aralash xarakterga ega bo'lib, xususan bir qismi fonetik asosda, bir qismi shartli transkripsiyalar asosida bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan material yozuv jarayonida grafemalarni optik tashkil qilish qanday rol o'ynashini va qanday yozuv nuqsonlari – me'yoriy va patologik nuqsonlar murakkab optik taxlilni ta'minlovchi miya tizimi funksiyalari bilan bog'liqligini yaqqol ko'rish imkonini beradi. Ular shuningdek, yozuvga o'rgatishning ilk bosqichlarida kuzatiladigan qiyinchiliklar qanday psixofiziologik mexanizmlar bilan bog'liqligini va qaysi usullar bu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi.

L.S. TSvetkova Yozma nutqni murakkab strukturasi uch bosqichda psixologik, psixofiziologik va lingvistik darajani jamlagan murakkab tuzilma sifatida taqdim etadi.

I. Psixologik daraja bir qator bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yozma nutq uchun motivning paydo bo'lishi.
2. Fikrning yaralishi.
3. Fikr asosida yozma nutq mazmunining yaralishi.
4. Bajarilayotgan harakatlarni nazorat qilish.

II. Psixofiziologik daraja ikkita kichik darajadan iborat bo'ladi: senso-akustiko-motor va optiko-motor.

A. Senso-akustiko-motor daraja.

Ushbu kichik daraja o'z tarkibiga ikki qismni oladi. Birinchi qism tovushlarni ajratish jarayonini amalga oshirishni ta'minlasa, ikkinchi qism esa so'zlardagi harflarni ketma-ket yozilishini ta'minlaydi. Bu daraja o'z vazifasini bajarishi uchun asosiy shart eshituv-nutqiy xotiraning saqlanganligi hisoblanadi.

B. Optiko-motor kichik daraja ham ikki qismdan iborat bo'lib, u bir kodni ikkinchisiga aylantira olish – almashtira olishdek murakkab jarayonni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Birinchi qism tovushni ko'ruv obrazi – harfga aylantirilishini ta'minlasa, ikkinchi qism esa ko'ruv obrazining motor predmetli harakatlar kompleksi bilan almashtirilishini ta'minlaydi.

III. Lingvistik daraja yozuvni til vositalari bilan ta'minlaydi, ya'ni ichki ma'noni lingvistik kodlarga – leksiko-morfologik va sintaksik birliklarga aylantirilishini amalga oshiradi.⁵

Aynan shu asosiy darajalarning hamkorligi, birgalikda ishlashi yozuv jarayonining to'liq amalga oshishi uchun optimal sharoitni yaratadi. Yozuv faoliyat turi sifatida uchta asosiy operatsiyani qamrab oladi:

- a) nutq tovushlarining ramzlar, ya'ni fonemalar bilan belgilanishi;
- b) grafik ramzlar yordamida so'zning tovushli tuzilmasini modellashtirish hamda
- v) grafo-motor operatsiyalar. Ularning har biri mustaqil malaka sifatida gavdalanib, o'ziga xos psixologik o'zakka ega bo'ladi.

Ramzlash malakasi, ya'ni fonemalarning harflar bilan belgilash malakasi bolada rivojlanib kelayotgan keng ko'lamdagi ramzlash malakalari: ramzli o'yinlar, tasviriy faoliyat kabilar asosida shakllanib boradi. Bundan tashqari, bunday malakaning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib fonematik idrok va nutqiy ongning yetarli darajada rivojlanishi hisoblanadi .

Ontogenezda ramzlash faoliyati bilan bog'liq qobiliyatning ilk namoyon bo'lishi ramzli o'yinlarga xos bo'lgan predmetlar va rasmdagi predmetlarning tasvirini o'yin orqali almashtirish harakatlari hisoblanadi. Bola aji-buji chizilgan tasvirlardan nomlash mumkin bo'lgan shakllarni tasvirlashga kirish vaqtdan boshlab, grafik ramzlash jarayoni rivojlana boshlayodi (V.S.Muxina,). Yozuvdan farqli ravishda bu ilk bora ramzlashdir (ya'ni yaxlit ravishdagi belgi hisoblanuvchi so'zlar emas, balki aniq predmetlar belgilanadi). Rasm chizishni o'zlashtirish – bu belgilash faoliyatini o'zlashtirishdir. Rivojlanishning ilk bosqichlarida bola avval nimanidir tasvirlaydi, keyingina unga nom o'ylab topadi. Yanada keyinroq, fikr asosida rasm chizish qobiliyati shakllanganidan so'ngra elementar belgili operatsiyalar paydo bo'lganligi haqida gapirish mumkin bo'ladi. Rasmlarni qismlashning o'sib borishi jarayonida grafik ramzlash tilini o'zlashtirishning o'sib borishi namoyon bo'ladi. Bunday qobiliyatlarning yetarli darajada rivojlanmasligi

⁵ Sadovnikova I. N. Narusheniya pismennoy rechi i ix preodolenie u mladshix shkolnikov. M., 1995.

normal aqliy rivojlanish kuzatilgan holatda ham grafemalarni o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Normal holatda bolada fonemalarning sensor va nutqiy – til etalonlari eshitiluvchi – tinglanuvchi kattalarning nutqiy namunalari, o'z nutqini eshitish orqali idrok etish va artikulyatsiya jarayonida vujudga keluvchi kinestetik hislarining o'zaro ta'siri asosida shakllanib boradi. SHunday qilib, fonematik tasavvurlar eshituv va kinestetik obrazlarning analizatorlararo integratsiyasi natijasi hisoblanadi. Analizatorlar orasidagi o'zaro ta'sirlarda nuqson kuzatilganda eshitish analizatori bola o'z talaffuzining to'g'riligini nazorat qilish vositasi bo'lmay qoladi. Va aksincha, nuqsonli tovush talaffuzida to'liq bo'lmagan kinestetik namunalarning fonemalarning eshituv etalonlari shakllanishiga patologik ta'sir etadi va ularni shaklini o'zgartiradi.

Disgrafiyaning turli xil ko'rinishlarini bartaraf etishda ,bu muammoga umumiy yondashuv metodlari ishlab chiqildi (I.N.Efimenkova, A.N.Kornev, R.I.Lalaeva, Ye.A.Loginova, L.G.Paramonova, I.N.Sadovnikova, Ye.F.Sobotovich, O.A.Tokareva, S.B.Yakovlev va boshqalar).

Disgrafik xatoliklarini I.N.Sadovnikova 3 ta guruxga bo'lishni taklif etadi.

1) xarf va bo'g'in darajasidagi xatoliklar (almashtirish,tushurib qoldirish va assimilyatsiyalar)

2) so'z darajasidagi xatoliklar (iboralarni leksik ajratish va so'zning morfem to'liqligini buzilishi)

3) gap darajasidagi xatoliklar (agramatizm va gap chegaralarining yo'qligi)

Bizga bunday ajratish bir qancha suniy tuyuladi,chunki bu xatoliklar ortida turuvchi mexanizmlari 1 va2 guruxlar uchun qisman o'xshash bo'ladi.Xususan bola tomonidan nutqning mazmun bo'linishi anglashni yetarli emasligi til birliklari,leksik,morfologik va fonematik taxlilni zaif egallashga xizmat qiladi.⁶

⁶ Sadovnikova I. N. Narusheniya pismennoy rechi i ix preodolenie u mladshix shkolnikov. M., 1995.

Bundan tashqari fonematik taxlil doimo so'z darajasida yuz beruvchi operatsiyadir. SHuning uchun u tovushlik kontekstga bog'liq ravishda buziladi. (bunga yorqin misol yozuvdagi assimilyatsiyalar)

Yuqorida keltirilgan yozuv ko'nikmasini psixologik tashkil etishni taxlil qilish modeliga mos ravishda uni tashxisi belgilashtirish operatsiyalarni qiymatini (tovushlarni grafik qoidalar asosida xarfga aylantirish) va so'zni grafik modellashtirish operatsiyalarini (grafik va orfografik qoidalar asosida) o'z ichiga olishi kerak.

1. Bolalar tomonidan grafemalar va tovush-xarf bog'liqligini o'zlashtirishni tashxis qilish.

A) kesma alifbodan aytilgan xarfni bola tomonidan topishi.

B) diktant asosida xarflarni yozish.

V) bosma xarflarni yozma xarflarga aylantirish.

Agar bola xarflarni almashtirib yozsa, unda ularni doimiyligini aniqlash kerak bo'ladi. ko'pincha bu toifa xatoliklar noto'g'ri xarakterda bo'lib, tovush xarf orasidagi bog'liqlikning ,sarfning ko'ruv obrazini o'zlashtirilishini yetarli emasligini yoki xarfni tasvirlovchi ,xarakat ko'nikmalarini egallashni zaifligini, "xisob-kitobni" o'zlashtirilishini yetarli emasligidan dalolat beradi. birinchi va oxirgi aytilgan sabablar ancha ko'p uchraydi.

Xarf-tovushlar orasidagi bog'liqlikning to'laqonli emasligidan xarflarning diktant asosida yozishda fonetik o'xshash xarflarning almashtirilish xatoliklari kuzatiladi. Grafemalarni ko'ruv obrazini o'zlashtirishdagi buzilishlarda optik jixatdan o'xshash xarflarni buzilishi kuzatiladi, bu kam uchraydi. (qo'l yozmada s-s, u-d-z, m-sh.) kesma alifbodan xarflarning grafomotor yetishmovchiligida xarf tanlashda diktant asosida yozishdan ko'ra kamroq xatoliklar kuzatiladi. Bu xolatda bosma xarflarning yozishda xam qiyinchiliklar kuzatiladi. Xatoliklar orasida yozilishiga ko'ra o'xshash xarflarni almashtirishdagi xatoliklar uchraydi (o-a, b-d, i-u, p-t, l-m, a-d) bunda 2-3 topshiriqlar birinchisidan ko'ra yomonroq bajariladi.

Agar xarflarni ko'ruv obrazini o'zlashtirilishini buzilishida 1,2 va 3 topshiriqlar bir xilda bajariladi.

Kamdan kam xolatlarda bola yuqorida ko'rsatilgan topshiriqlarni deyarli xatosiz bajaradi, lekin ular juda sekin bajariladi. Bu xarf-tovush aloqalarini avtomatlashuvini yo'qligidan dalolat beradi. Bu xususiyat yozuv jarayonini sekinlashtiradi va so'zni yozishdagi ko'p sonli xatoliklarning sababi bo'lib xizmat qiladi.

2. So'zni grafik modellashtirish shunday tashkil etilishi kerakki, quyidagi misollar xal etilishi kerak.

Etakchi xatoliklarni aniqlash (diktantda, ijodiy ishda, tushurib qoldirilgan xarflarni qo'yishda). Odatda tashxis qilish uchun yozuvdagi xatoliklar sonini ko'pligi xizmat qilar ekan, xuddi shularning o'zi birinchi navbatda taxlil obekti bo'ladi. Yozma ishlarni o'rganishda ko'pgina quyidagicha guruxlashtirilgan ko'p takrorlanuchi xatoliklarga asosiy e'tibot qaratiladi.

A) kuchli pozitsiyalarda oppozitsion undoshlarni almashtirilishi,

B) zaif pozitsiyada oppozitsion undoshlarni almashtirilishi ("fonematik yozuv" deb nomlangan)

V) zarbli unililarni almashtirilishi

G) zarbsiz unililarni almashtirilishi. assimilyatsiyalar (progressiv va regresiv) va xakozolar. bir xil so'z yoki so'z birikmalaridagi xarflarni almashtirilishi (I.N. Sadovnikova ularni perservatsiyalar va antitsipatsiyalar deb ataydi)

E) xarf va bo'g'inlarni o'rnini almashtirilishi

J) interatsiyalar yoki xarflarni ikkita bo'lishi (masalan bir xil xarflarni bir qatorda va ko'chirib yozishda ketma-ket yozilishi)

Z) xarflarni qo'shib yozilishi (masalan undoshlarni qo'shib uzilishida)

I) iboralarni leksik ajratishning buzilishi;

K) gap chegaralarini belgilashni buzilishi (bosh xarflarni gap boshida va gap oxirida nuqtani yo'qligi)

L) so'zlarni grammatik moslashuvidagi xatoliklar (qo'shimchalarni almashtirilishi.)

SHu narsaga maxsus e'tibor qaratish kerakki ,so'zning qaysi qismida qo'proq kamchilikka yo'l qo'yiladi,ma'lum turdagi xatoliklarni doimiyligi darajasi qanday.

Barcha yuqorida keltirilgan yozuv aspektlari til tizimi sifatida va til qobilyatini yozuv aktida amalga oshirilishi ,o'zida grafo-motor faoliyat turlari va ko'nikmalarini aks ettiradi.Yozuv ko'nikmasi og'zaki nutq va uning qonuniyatlariga bog'liq bo'lishiga qaramay ,yuqorida qayd etilgan yozuv shakllarini barchasini amalga oshirilishini ta'minlovchi o'zining psixologik,sensomotor bazasiga ega.

Faoliyat turi sifatida yozuv uchta asosiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- a)tovush va fonemalarni nutqda belgilanishi ,
- b)so'zni tovush tizimini grafik belgilar ,yordamida modellashtirish,
- v) grafo-motor operatsiyalar.

Ulardan xar biri psixologik ta'minlashga mos mustaqil ko'nikmalar xisoblanadi.

Yozuvning psixologik mexanizmlarini funktsional strukturasi.

A)Tovush va fonemalarni nutqda belgilanishi ko'nikmasi ,fonemalarni xarflarda ifodalash bolada rivojlanayotgan qobilyatlar asosida belgilash ancha keng doirada shakllanadi:belgili o'yinlar,tasviriy faoliyat va boshqalar bundan tashqari uning zaruriy sharti fonematik idrokni yetarlicha yetilishi va anglashdir.

Ontogenezda belgilash faoliyatini birinchi paydo bo'lishi qobilyati. Predmetlarni almashtirish o'yinlar va rasmlarda predmetlarni tasvirlanishi paydo bo'lishi xisoblanadi.SHu vaqtdan boshlab cho'plardan shakllarni ifodalashga o'tadi,nomlaydi,bunda grafik belgilashtirish rivojlana boshlaydi.(Mnuxin.V.S)Yozuvdan farqli bu belgilashtirish birinchi o'rinda turadi.

Rasm chizishni o'rgatish-bu o'rganish belgilash faoliyatidir.Bolani ilk rivojlanish bosqichida bola avval biron narsani tasvirlaydi ,keyin esa bunga nom topadi.Faqat keyinroq ,fikrlab rasm chizish qobilyatini shakllangandan keyin, elementar fikrlash operatsiyalari xaqida gapirish mumkin. Rasmlarni detallashtirsh jarayoni tilning grafik belgilarini o'zlashtirsh dinamikasining paydo bo'lishidir. Bu qobilyatlarning yetilmaganligi xatto yetarliaqliy rivojlanishida xam grafemalarni egallashni qiyinlashtiradi.

Bolada fonematik idrokni rivojlanish bir necha bosqichdan iborat:

1)fonetikagacha bo'lgan bosqich atrofdegilar nutqidagi tovushlarni to'liq differentsiyasining yo'qligi,nutqni tushunish va faol nutqiy imkoniyatlar;

2)fonemalarni idrok etishni o'zlashtirilishining ilk bosqichi;akustik o'xshash fonemalarni farqlash va differentsial begilari o'xshash tovushlarni farqlamanligi.

So'z dolzarb qabul qilinadi va umumiy tovushli "qiyofasi"ga ko'ra prosodik xususiyatiga (intonatsion ritmik tavsifnoma)ko'ra anglanadi;

3)bolalar tovushlarni ularning fonematik belgilariga mos eshitishni boshlaydi.

Bola to'g'ri va noto'g'ri talaffuzini farqlay olish qobilyatiga ega bo'ladi.

Ammo noto'g'ri talaffuz qilinayotgan so'zni xali bilmaydi.

4)fonemalarni to'g'ri talqin qilinishini idrok qila oladi,ammao bola noto'g'ri talaffuz etilgan so'zni farqlay olmasligi davom etadi.Bu bosqichda xali fonematik idrokning sensor etalonlari turg'un bo'lmaydi.

5)fonematik idrok rivojlanishi yakunlanishi.Bola to'g'ri gapiradi va eshitadi,so'zlarni noto'g'ri talaffuzi kuzatilmaydi.

Shu vaqtdan boshlab bolada fonematik rivojlanish me'yorda spontan xolda atrofdegilar nutqiy sharoitga bog'liq ravishda kechadi.Maktabda boshlang'ich ta'limda u yo'naltirilgan ta'limga ko'ra u o'zining tilni anglashni rivojlantirishiga yana bitta qadam qo'yadi.

6) so'zning tovush tomoni uni tashkil etgan bo'g'imlarini anglash. Ba'zan bu jarayon og'zaki nutqni rivojlanmaganligi, ruxiy rivojlanitshining sustligi psixikrivojlanishini ortda qolishi bilan bog'liq ravishda kechadi. Bu bosqichda fonematik idrokni rivojlantirishga erishish fonematik taxlilning zarur shartlarini egallash xisoblanadi.

Ammo qator xollarda uni buzilib rivojlanishi kuzatiladi.Biz bunda fonematik idrok buzilishlarini ko'zda tutib ,odatda bu uni 4-5 bosqichida taxmiinan 4-6 yoshda sezilarli bo'ladi.Bunday xollarda bolada bazi fonemalarni yoki ularni guruxlarini farqlash uzoq muddatgacha noaniqligicha qoladi.

Ma'lumki bir-biridan talaffuziga ko'ra juda kam farq qiladigan ,o'xshash tovushlar buziladi;jarangli vajarangsiz tovushlar .

Ko'pincha bunday kamchiliklar nutq eshituv va nutq –xarakat analizatorlarining o'zaro faoliyatini buzilishi oqibati xisoblanadi.

Me'yorda fonemalarning til va sensor etalonlari bolada kattalar nutq namunalarini eshitish asosida ,o'zining nutqini eshitib idrok etish va artikulyatsiya jarayonida olinadigan kinestetik sezgilar orqali shakllanadi.Shu tariqa fonematik tasavvur eshituv va kinestetik borazlarning analizatorlararo integratsiyasi natijasi xisoblanadi.Eshituv analizatorining analizatorlararo aloqalari buzilsa,bolada to'g'ri talaffuzni o'zi nazorat qilish qobiliyati yo'qoladi.Nuqsonli talaffuzda to'laqonli bo'lmagan kinestetik obrazlar fonemalarni eshituv etalonlari va ularni farqlashni shakllanishini buzilishiga ta'sir ko'rsatadi.Bunday xollarda bolalar juft so'zlarni quyidagicha idrok etadi; kosa-ko'za,botinka-potinka,kitob-kitop kabi.bunday nuqson to'g'ri talaffuzni shakllanishiga to'sqinlik qiladi va xarflarni yozuvda tizimli almashtirishga olib keladi.

B)So'zning tovush tizimini xarflar yordamida modellashtirish.

Bu ko'nikmani takomillashtirish savodga o'rgatishning boshlang'ich bosqichida 2-davrda amalga oshadi; avval so'zning tovush tomonini fonologik tizimlash amalga oshiriladi,fonemalarni ketma-ketligi aniqlanadi,keyin fonemalarni vaqtinchalik ketma-ketligi ,fazoda xarflarning vaqtinchalik ketma-ketligini joylashuvi amalga oshiriladi.

Fonematik taxlilda fonologik tizimlashni ,buzilishini ko'pgina olimlar disgrafiyada yetakchi rol o'ynashini ko'rsatishadi.(Sadovnikova.I.N,Kattsn[90])

Operatsiyaning 2-bosqichi sezilmaydi yoki qiymatga ega bo'lmaydi. Eksperimental psixologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha ,xarfli yozuv va fonematik taxlil doimo bir-birigi mos kelmaydi.

Ammo ko'pincha ,turg'un disgrafiyada bir nesa yil o'qitishdan keyin xam bola og'zaki fonematik taxlilda xatoliklarga yo'l qo'ymaydi,ammo yozuvda esa maxsus xatoliklarga kuzatiladi.Bunga sabablardan biri ikkinchi etap operatsiyalarining so'zni tovushli tizimini modellashtirish yashiringan

bo'ladi. Grafemalarni fazodagi qatorida fonemalarni vaqtinchalik ketma-ketligi ni transformatsiyalash jarayoni bolada fonematik taxlil va xarflarning yozishdagi grafo-motor operatsiyalar bilan deyarli paralel kechadi.

Yana bitta "suv tagida tosh" mavjudki, u bu operatsiyalarni bajarishdagi qiyinchiliklarda xam rol o'ynaydi.

Fonematik taxlil, so'zni xarflab yozish kabilar suktsesiv jarayon (bosma yozuv) xisoblanib, o'zida intellekt bilan yengil bog'liq shartni aks ettiradi. Va xatto MNS ning organik –rezidual yengil jaroxalarida xam aziyat chekadi.

Agar vaqtinchalik tovushlar va belgilar ketma-ketligini qisqa muddatli xotiradi saqlash qobilyati bolada buzilgan bo'lsa, bu yozuvni egallashda xam kuzatiladi.

V) Grafik-motor ko'nikmalar yozuvni tashkil etuvchi operatsiyalar zanjirida yakuniy samarador bo'g'ini xisoblanadi shu bilan birga ular nafaqat kalligrafiyaga ta'sir ko'rsatadi, ammo yozuv jarayonining to'liq qismiga emas.

Masalan xarflarni tasvirlash bilan bog'liq qiyinchiliklar ba'zan bola diqqatini shunday og'irlashtiradiki, bu operatsiyalarning xammasini chala tashkil etadi. Ularni ontogenezda shakllanishi muxim evolyutsiyani tasviriy faoliyat bilan bir vaqtda rivojlanishidan aziyat tortadi.

Shu jarayonga bog'liq muxim funktsiyalar ko'ruv-motor kordinatsiyalar xisoblanadi. Maktabgacha yosh davrini kechishini anchagina qismida tasviriy faoliyatni boshqarish xarakter analizatori asosida amalga oshiriladi. 1 yoshdan 4-5 yoshgacha bo'lgan davr qo'l xarakterlarini ixtiyoriy boshqarishni o'zlashtirishga ketadi. Boshqarish nazorati, aks bog'liqlik kinesteziyalar yordamida amalga oshadi. Chizish vaqtida bolalar "qo'l xotirasiga" tayanadilar.

Qo'l xuddi "ko'z"ni o'qitadi. Analizatorlararo integratsiyaning rivojlanishida 6-8 yoshda erishiladi. Bunda qo'l xarakterlari bilan boyigan "ko'z" xarakterlarni boshqarishda ishtirok etadi. Shu paytdan ko'ruv-motor kordinatsiyasi grafo-motor xarakterlarni boshqarish va ko'nikmalarga mos rivojlanishni boshqarishda yetakchi o'rinni egallay boshlaydi. Shuning uchun bu qobilyatlarning shakllanishi "maktabgacha tayyorgarlik" deb ataluvchi ko'rsatkichlardan biri xisoblanadi.

1-bob bo'yicha xulosa

Dizartriya bu og'ir nutq buzilishlaridan biri bo'lib, uning asosiy belgilari nutqiy artikulyatsiya, motorikasi, nutqiy nafas bilan bog'liq bo'lgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuqsonlaridir.

Dizartrik bolalar nutqining uziga xos xususiyatlari, belgilari, mexanizmlari, tarkalish darajasi va ularni korrektsiyalash chet el va yurtimiz olimlari tomonidan nisbatan keng urganilgan, psixologik-pedagogik ish tizimlari yaratilgan, biroq maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarda yozma nutq buzilishlarini oldini olishga oid uzbek tilidagi adabiyotlar juda kamdir.

Yozuv jarayoni kup darajali qurilishga ega bo'lib, kup mikdorli operatsiyalarni uz ichiga oladi. Yozuv jarayoni buzilishini belgilashda fonematik idrok, fazoviy tasavvur, nutq tovushlarni ko'rish va eshitish orqali farqlash, ko'ruv analizi va sintezi xamda nozik artikulyatsion xarkat buzilishlarini yaqqol sabablar qatorida ko'rsatishimiz mumkin

Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish buyicha pedagogik, psixologik va maxsus adabiyotlarini o'rganib ularni taxlil kilish asosida kuyidagi xulosaga keldik.

Bizning nazarimizda dizartrik bolalarda xam sog tengdoshlari kabi erishishi lozim bulgan bilim, kunikma va malakalarni maktabgacha ta'lim muassasasidan egallay boshlab, maktabda uzining mantikiy davomini topmogi joiz. Yozuv faoliyatini mukammal egallashda mana shu jarayonlar ketma-ketligi juda muxim sanaladi, ulardan birontasini rivojlanmay kolishi yozuv jarayonini uzlashtirishga uz ta'sirini kursatmay kolmaydi.

2. Bob. Dizartrik bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

2.1 Dizartrik bolalar nutqini tekshirish metodikasi

Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish va kompleks logopedik tekshiruv o'tkazish natijalari dizartrik bolalar yozma nutqidagi buzilishlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimizga imkon beradi.

Tadqiqot o'tkazish jarayonida biz I.M.Sechenovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti, I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal sistemasi nazariyasi, hamda R.E.Levina tomonidan ishlab chiqilgan nutq patologiyasini taxlil qilish tamoyillariga (rivojlanish tamoyili, sistemali yondoshi tamoyili, nutqning boshqa ruxiy jarayonlar bilan o'zaro aloqadorlik tamoyili, kompleks yondashuv tamoyili) tayandik.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga tayanib, logopedik tekshirishni quyidagi yo'nalishlarda olib bordik.

1. Artikulyatsion apparat tuzilishi va xarakatchanligini tekshirish.
2. Mayda qo'l motorikasini tekshirish.
3. Tovush talaffuzini tekshirish.
4. Fonematik idrokni tekshirish
5. Ko'ruv idrokini tekshirish.
6. Nutqiy diqqatni tekshirish
7. Fazoviy mo'ljal olishni tekshirish .

1. Artikulyatsion apparat tuzilishi va xarakatchanligini tekshirish.

Artikulyatsion apparatni tekshirishdan asosiy maqsad tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarning sababi bo'luvchi artikulyatsion a'zolar tuzilishidagi yaqqol ifodalangan kamchiliklar va xarakatchanligini aniqlashdir.

Artikulyatsion apparatni tekshirganimizda e'tiborimizni lablar, til, jag'lar, tishlar, qattiq va yuishoq tanglay, tilchaga qaratdik. Bunda Artikulyatsion apparatning anatomik jihatdan tuzilishi tekshirildi va artikulyatsion apparat xarakatchanligini tekshirish uchun artikulyatsion mashqlar tanladik.

Lablar xarakatchanligi :

-Tishlarni ko'rsatmay lablarni kulgu xolatiga keltirish.

Lablarni naycha xolatida cho'zish..

-Bir vaqtning o'zida yuqori labni yuqoriga ,pastki labni pastga tortish(“oskal”)

-Yuqori lab bilan pastki labni qoplash.

-Pastki labni yuqorigi lab ustiga joylash.

-Yuz muskulturasining xaraktchangini tekshirish

-Avval o'ng , so'ngra chap lunjlarni ishirish;

-Lunjlarni baravariga ishirish;

-Lunjlarni ichga tortish;

Til tuzilishini tekshirishda uning anatomik tuzilishiga e'tiborni qaratdik :til normada,uzun,kalta,yo'g'on,ingichka,yuganchaning kalta bo'lishi.

Til xarakatchanligini tekshirish:

•til uchini o'ng lo'njga tekkizish.

•Til uchini chap lo'njga tekkizish (og'iz ichida futbol o'yini)

•Til bilan yuqori va pastki lablarni yalash.

•Til uchini og'izning bir burchagidan ikkinchisiga xarakatlantirish.

Jag'lar tuzilishini tekshirish:

Progeniya- pastki jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi.

Prognatiya-yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi.

Oldi ochiq prikus –yuqori va pastki jag'lar birlashganda oldingi tishlar orasi ochiq Yoni ochiq prikus-jag'lar birlashgandayon tomondagi tishlar orasining ochiq bo'lishi.O'ng tomonli,chap tomonli va ikki tomonli bo'lishi mumkin.

Pastki jag'lar xarakatchanligini tekshirish.

og'izni katta ochish va shu xolatda 5 sekund ushlab turish.

pastki jag'ni o'ng va chap tomonga xarakatlantirish.

Tishlar tuzilishini tekshirish:

Tishlarni teshirishda normal,yo'q bo'lishi,orasi ochiq bo'lishi,yirik bo'lishiga axamiyat berildi.

Tanglay tuzilishinitekshirish:

tanglayni tekshirishda normal,baland, past, tor, yassi, yoriqliklar inobatga olinadi.

Yumshoq tanglay xarakatchanliginitekshirish:

tilni pastki lab ustiga qo'ygan xolda esnash,yo'talish.

“a” unli tovushini qattiq talaffuz qilish.

Qattiq tanglay xarakatchanligini tekshirish:

Qattiq tanglay qo'ng'uradorligi,past joylashuvi,yoriqlari mavjudligi yoki me'yoridaligi aniqlanadi.

Tilcha xaraktchanligini tekshirish: normada ,yo'qligi, kaltaligi, ikkiga bo'linganligiga e'tibor berildi.

Artikulyatsion apparat xarakatchanligini tekshirishga oid mashqlarni bolalar qay darajada bajarganliklari ball tizimida izoxlanadi.

5-ball-barcha topshiriqlarni mustaqil va to'g'ri bajardi.

4-ball-topshiriq qayta takrorlangach bajardi.

3-ball- logoped yordamida bajardi

2 ball-noto'g'ri bajardi

1 ball-bajarolmadi.

2.Mayda qo'l motorikasini tekshirish.

Qo'l va barmoqlar motorikasi,etakchi qo'l ,kaft xamda barmoqlarning umumiy xolatini aniqlashda qo'llanuvchi ish ko'rinishlarini O.B.Inshakovaninig [32] “Razvitie i korrektsiya grafo-motornx navkov u detey 5-7 let”nomli qo'llanmasidan keltirishni ma'qul deb topdik.Muallif tomonidan tavsiya etilgan ko'rgazmali materiallarni bolalar tserebral falajlanishiga ega bo'lgan, tayanch-xarakat apparatida og'ir ko'rinishdagi muammoli dizartrik bolalar uchun moslashtirdik.Barmoqlar umum xarakatlar muvofiqligini tekshirish uchun A.D.Seleznevaning “CHudo na palchikax”nomli qo'llanmasidan foydalandik.

1-topshiriq.

“Qalamlarni qalamdonga yig'ish”

Maqsad: bolalarning barmoqlar ,kaft xarakatlarini tekshirish,ular xarakatining muofiqlashganligini aniqlash.

Bola oldigi uzun va ensiz qalamdondagi rangli qalamlar sochiladi.Bola ularni terib qalamdonga joylashi lozim.Bunda bola xarakatlari, u vazifani

bajarishda qaysi qo'ldan ko'proq foydalangani,uning mo'ljalni olish ko'nikmalari tekshiriladi

2-topshiriq.

-Barmoqlar salomlashdilar.

Bolaga aval ikkal qo'l barmoqlari keng ochishni aytiladi so'ngra ikita bosh barmoqlarni bir-biriga tekkizish so'raladi shu tariqa barmoqlar navbatma-navbat bir –biri bilan salomlashadilar.

- Barmoqlarni navbatma-navbat mushtum xolatiga keltirish va ochish.-
CHimdim tuz sepayotgan barmoqlar xarakatini ifodalash.

Bolaga o'ng qo'lning ko'rsatkich va bosh barmoqlari yordamida chimdim tuz olib sepayotgandek ifodalashni ko'rsatish so'raladi bu xolat chap qo'lda xam bajariladi, bu topshiriq oldin bajarib ko'rsatiladi.

Arqonchani tayyoqchaga o'rash.

Bu vazifada tayyoqchaga bog'langan arqonchani shu tayyoqchaga o'rab chiqish kerak bo'ladi.

CHapak chalish

3-topshiriq.

- “Yo'lchalar”

Topshiriqda turli yo'nalishlarda “to'g'ri,zig-zig,to'lqinsimon” yo'lakchalar beriladi,bunda yo'lakcha boshida turgan xashorotlarni shu yo'laklardan to'g'ri ko'rsatkich bo'ylab qalam yordamida qo'l uzmay yurgizish so'raladi.

-“SHtrixlash”

Namuna asosida berilgan rasmda tasvirlangan yomg'ir tomchilarini bulutlardan to'g'ri yo'nalishda archalarga shtrixlab tushurish so'raladi.

-“ Nuqtalar ”

Bolalar yoshiga mos tartibda tanlangan nok,qo'ziqorin,uycha rasmlarini nuqtalar ustidan qalam yordamida qo'l uzmay chizishi so'raladi.

4-topshiriq Yetakchi barmoqni aniqlash:Labirint

Bolaga labirint yo'lakchalaridan barmoq orqali kuchukchaga suyakni oldiga borish yo'lini bajarib ko'rsatib beriladi.Endi sen xam kuchukchaga suyakni

topishiga yordam berdeb so'raladi. Bu topshiriqda boladagi yetakchi barmoq xarakati aniqlanadi.

Natijani baxolash:

5-ball-barcha topshiriqlarni mustaqil va to'g'ri bajardi.

4-ball-topshiriq qayta takrorlangach bajardi.

3-ball- logoped yordamida bajardi

2 ball-noto'g'ri bajardi

1 ball-bajarolmadi.

3. Tovushlar talaffuzi xolatini tekshirish.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni aniqlash uchun biz professor L.R.Mo'minova (1997)ning logopedik tekshirish bo'yicha metodik qo'llanmasidan foydalandik. An'naviy tekshirish printsi va metodlarini

Xisobga olgan xolda maxsus nutqiy material tanladik. Nutqiy materialni tanlashda biz tekshiriladigan tovushni turli bo'g'nlarda, ya'ni ochiq va yopiq bo'g'nlarda, unililar orasida, bir tovushni turli pozitsiyalarda (so'z boshida, o'rtasida, oxirida) xamda bolaning mustaqil nutqida xam e'tiborga oldik. Nutqiy materialni tanlashda dizartrik bolalar lug'ati talabigajavob beradigan so'zlar tanladik.

Tovushlar talaffuzini tekshirish yakka tartibda o'tkazildi va nutq kartasiga kiritildi.

Tovushlar talaffuzini tekshirishda biz maxsus logopedik albomdan foydalandik. Albomda bolalar lug'atiga va tushunishiga mos bo'lgan so'zlarni ifodalovchi predmetli rasmlar berilgan. Tekshirilayotgan xar bir tovush uch o'rinda berildi: so'zning boshida, o'rtasida, oxirida. Bola rasmlarni ko'rib nomlaydi, biz esa xar bir tovush talaffuzining buzilganlik darajasini nutq kartasiga qayd qilib boramiz. Quyidagi tovushlar talaffuzi tekshiriladi. (tekshirildi.)

- unli tovushlar (a, o, o', i, e)
- sirg'aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar (s, z, sh, j, ch)
- sonor tovushlar (r, l, m, n)
- til orqa tovushlari (k, g, x)

- chuqur til orqa tovushlari (q,g',h)
- jarangli va jarangsiz tovushlar.

Bolalarda tovushlar talaffuzining qay darajada ekanligi ball tizimida izoxlanadi.

5-ball-barcha topshiriqlarni mustaqil va to'g'ri bajardi.

4-ball-topshiriq qayta takrorlangach bajardi.

3-ball- logoped yordamida bajardi

2 ball-noto'g'ri bajardi

1 ball-bajarolmadi.

4.Fazoviy mo'ljal olish.

Fazoda mo'ljal olish ,faoliyatni fazoda to'g'ri tashkil etish –murakkab faoliyat bo'lib ,unda xam o'ng xam chap yarimsharlar ishtirok etadi.bunda erta shakllanuvchi funktsiyalar o'ng yarimshar ishiga bogliq.ko'ruv motor kordinatsiyalari unga bogliq b/b ,vertikal va gorizontal kordinatalar bo'yicha xarakatlarni mutanosiblashtirish imkoni,qismlarni umumiy joylashuvi va bir yaxlit obrazni olish xam o'ng yarimsharlarga bogliq.Biz dizartirk bolalarning fazoviy mo'ljal olish ko'nikmalarini quyidagi topshiriqlar orqali aniqladik.

1) CHap,o'ng qo'lni aniqlash

Boladan aval o'ng ,so'ngra chap qo'lni ko'rsatish so'raladi.

2)Predmetlarning fazodagi o'rnini aniqlash.

Bolaga rasm orqali predmetlarni joylashuvini topish va nomini aytib ko'rsatib berish so'raladi.

3) Elementlarni bir tekisda ifoda etish.

Bolalardan katak daftarga shakllarni bir tekisda chiziqlardan chiqmagan xolatda ifodalash so'raladi.

Natijani baxolash.

5-ball-barcha topshiriqlarni mustaqil va to'g'ri bajardi.

4-ball-topshiriq qayta takrorlangach bajardi.

3-ball- logoped yordamida bajardi

2 ball-noto'g'ri bajardi

1 ball-bajarolmadi.

2.2 Logopedik tekshirish natijalari.

Biz eksperiment tadqiqot ishimizni Qo'qon shaxar Muqimiy shaxarchasidagi 64 - sonli Harakat tayanch a'zolarida nuqsoni mavjud bolalar uchun mo'ljallangan maxsus MTM da olib bordik. Tadqiqot uchun 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalarni tanlandik. Bolalarning 11 nafar qiz, 9 nafar o'g'il bolalar.

Bolalarni tekshirishga tayyorlashdan oldin ularning ko'rish va eshitish qobilyati, markaziy nerv sistemasi xolati xaqida to'liq ma'lumotlar yig'dik. Logopedik tekshiruvning quyidagi yo'nalishlari natijalarini qayd qildik.

- 1.Artikulyatsion apparat tuzilishi va xarakatchanligini tekshirish natijalari.
- 2.Mayda qo'l motorikasini tekshirish natijalari.
- 3.Tovushlar talaffuzini tekshirish natijalari.
- 4.Fonematik idrokni tekshirish natijalari.
- 5.Ko'ruv idrokini tekshirish natijalari.
- 6.Nutqiy diqqatning rivojlanganlik darajasini tekshirish natijalari.
- 7.Fazoviy mo'ljal olishni tekshirish natijalari.

1 Artikulyatsion apparat tuzilishi va xarakatchanligini tekshirish natijalari.

Artikulyatsion apparat organlarining anatomik jixatdan normal tuzilishi va yaxshi harakati natijasida biz tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz etamiz.Turli tovushlarni talaffuz qilganda har bir organ ma'lum holatni egallaydi,shuning uchun artikulyatsion apparat organlari o'z xarakatlarini,holatlarni tez o'zgartirishi lozim.

Tekshirish jarayonida bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, dizartrik bolalar yuqorida berilgan holatlar bo'yicha kamchiliklar kuzatiladi.Tekshiriluvchi bolalarda artikulyatsion apparatning anatomik tuzilishida kamchiliklar mavjud: lablarning

ingichkaligi, tishlarning yirikligi, tishlarning orasi ochiqligi, tanglayning balandligi, prognatiya, tilchaning kaltaligi va boshqalar.

Dizartrik bolalarning artikulyatsion apparat organlari falajlanganligi uchun ularda xarakatchan organ tilni ma'lum vaziyatlarda ushlab turolmasliklari, tovush talaffuzi uchun tilni kerakli xolatini egallay olmasliklari aniqlandi. Tekshiriluvchi bolalarning 40% da artikulyatsion apparat tuzilishini tekshirish jarayonida lablar va tilning titrab turishi kuzatiladi.

Artikulyatsion apparat tuzilishini tekshirish bo'yicha olingan ma'lumotlarni 2-jadvalda, dizartrik bolalarda artikulyatsion apparat harakatchanligini tekshirish bo'yicha olingan ma'lumotlarni esa 3-jadvalda batafsil keltiramiz.

Dizartrik bolalarning artikulyatsion apparat tuzilishini tekshirish natijasida quyidagilar aniqlandi:

Lab tuzilishi tekshirganimizda 10% (2 nafar) bolada lab tuzilishi normadagidan ingichka ekanligi, 5% (1 nafar) bolaning lab tuzilishi qalinligi, qolgan 85% (17 nafar) bolalarda lab tuzilishida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaganligi aniqlandi.

Tilning tuzilishini tekshirganimizda bolalarning 15% (3 nafar) bolada tilning yo'g'onligi, 20% (4 nafar) bolada ingichkaligi, 20% (4 nafar) bolada esa yuganchaning kaltaligi va qolgan 45% (9 nafar) bolalarda til tuzilishida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaganini aniqlandi.

Dizartrik bolalar jag' tuzilishini tekshirganimizda 15% (3 nafar) bolada yuqori jag'ning oldinga chiqishi (prognatiya) kuzatildi, qolgan 85% (17 nafar) bolada jag'lar tuzilishida hech qanday nuqsonlar kuzatilmadi.

Tishlarning tuzilishini tekshirganimizda 30% (6 nafar) bolalarda tishlarning yirikligi, 5% (1 nafar) bolada yuqori tishlarning yo'qligi, 20% (4 nafar) bolada tishlarning orasi ochiq, qolgan 45% (9 nafar) bolalarda esa tishlarning tuzilishida hech qanday kamchiliklar kuzatilmadi.

Bolalarning tanglay tuzilishini tekshirganimizda 35% (7 nafar) bolada tanglay normadagidan baland ekanligi aniqlandi, qolgan 65% (13 nafar) bolada tanglay

tuzilishida nuqsonlar kuzatilmadi.20% (4 nafar) bolalarda tilchaning kaltaligi kuzatiladi,qolgan 80% (16 nafar) bolalarda tilchaning tuzilishida nuqsonlar aniqlanmadi.

Artikulyatsion apparat xarakatchanligini tekshirish

Natijalari (statik mashqlar)

2-jadval.

	Artikulyatsion apparat xarakatchanligini tekshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar	Bolalarning topshiriqlarni bajarganligi ko'rsatkichlari (%)xisobida					O'rta ko'rsatkich
		5	4	3	2	1	
1	Tishlarni ko'rsatmay kulgu xolatiga keltirish.	45%	20%	15%	20%	-	3,9
2	Lablarni naycha xolatiga keltirish	15%	15%	25%	30%	15%	2,9
3	Bir vaqtning o'zida yuqori labni yuqoriga ,pastki labni pastgtortish("oskal")	-	40%	40%	15%	5%	3,1
4	Yuqori lab bilan pastki labni qoplash	20%	20%	25%	20%	15%	3,1
5	Paski lab bilan yuqori labni qoplash.	10%	25%	35%	20%	10%	3
6	Og'izni katta ochish va shu xolatda 5 sekund turish.	70%	30%	-	-	-	4,7

7	Tilni pastki lab ustiga qo'ygan xolatda esnash, yo'talish	25%	25%	20%	15%	15%	3,3
8	“a” unli tovushini qattiq talaffuz qilish.	50%	30%	10%	10%	-	4,2
Jami		3,5					

(Dinamik mashqlar)

3-jadval.

	Artikulyatsion apparat xarakatchanligini tekshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar	Bolalarning topshiriqlarni bajarganligi ko'rsatkichlari (%) xisobida					O'rta ko'rsatkich
		5	4	3	2	1	
1	Til uchini o'ng va chap lunjga tekkizish.	-	15%	35%	25%	25%	2,4
2	Til bilan yuqori va pastki lablarni yalash (mazzali murabbo)	-	5%	15%	40%	40%	1,9
3	Til uchini og'izning bir burchagidan ikkinchisiga xarakatlantirish.(soatcha)	5%	15%	25%	40%	15%	2,6
4	Pastki jag'ni o'ng va chap tomonga xarakatlantirish.	-	-	-	80%	20%	1,8
5	“Arg'imchoq” mashqi.	-	-	20%	70%	10%	2,1
6	“Otcha” mashqi	25%	25%	15%	15%	20%	3,2

7	Lunjlarni ichga tortish.	-	-	-	40%	60%	1,4
8	Lunjlarni baravariga ishirish.	15%	20%	30%	25%	10%	3
	Jami	2,3					

Dizartrik bolalarning artikulyatsion apparat xarakatchanligini holatini tekshirish natijasida quyidagilar aniqlandi: (statik mashqlarda)

Tishlarni ko'rsatmay kulgu holatiga keltirish ko'rsatmasini 20% (4 nafar) bolalar og'izlarni ochgan xolatda kulib noto'g'ri bajardilar o'rtadan quyi ko'rsatkich ,15%(3 nafar) bolalar o'rta , 20%(4 nafar) bolalar yordam asosida bajarib o'rtadan yuqori,va qolgan 45%(9 nafar) bolalar topshirig'ni to'g'ri ko'rsatma bo'yicha bajarib yuqori natijalarga erishdilar.

Lablarni chuchaytirib naycha xolatiga keltirish topshirig'ini 15% (3 nafar) bolalar topshiriqni bajara olmay quyi natijalarga,30%(6 nafar) bolalar noto'g'ri bajarib o'rtadan quyi,25%(5 nafar) bolalar o'rta ,15%(3 nafar) bolalar logoped ko'magi ostida bajarib o'rtadan yuqori va 15(3 nafar) bolalar bu topshiriqni to'g'ri bajarib yuqori natijalarga erishdilar.

Bir vaqtning o'zida yuqori labni yuqoriga ,pastki labni pastga tortish(“oskal”) topshirig'ini 5% (1nafar)bola bajara olmadi,15%(3 nafar)bola bir vaqtning o'zida faqat yuqoriga labni ko'tara oldilar ,40% (8nafar)bolalar logoped ko'rsatmasidan so'ng bajardilar, 40% (8nafar)bolalar to'g'ri bajarib yuqori natijalarga erishdilar.

Yuqorigi lab bilan pastki labni qoplash mashqini 15%(3 nafar)bola bajara olmay yuqori labni til ustiga qo'yib quyi,20%(4 nafar)bolalar ko'rsatma bo'yicha bajara olmay noto'g'ri bajardilar, 25%(5 nafar) bolalar o'rta ,20%(4 nafar)bolalar logoped ko'magi ostida bajarib o'rtadan yuqori va 20%(4 nafar) bolalar topshiriqni to'g'ri bajarib yuqori natijalarga erishdilar.

Pastki lab bilan yuqorigi labni qoplash mashqini 10%(2 nafar) bolalar topshiriqni bajarishda tillarini og'iz ichida ushlab tura olmadilar,20%(4 nafar)bolalar noto'g'ri ya'ni pastki lab bilan yuqorigi labni to'liq qoplay olmadilar,35%(7 nafar)bolalar qiyinchilik bilan bajardilar,qolgan 25%(5 nafar) bolalar logoped ko'magi ostida va 10%(2nafar) bolalar to'g'ri bajarib yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar.

Og'izni katta ochish va xolatda 5 sekund ushlab turish mashqini 70%(14nafar)bolalar yuqori va 30% (6 nafar) o'rtadan yuqori ko'rsatkichlar bilan baxolandilar.

Tilni pastki lab ustiga qo'ygan xolatda esnash,yo'talish topshirig'ini 15% (3nafar) bolalar bajara olmay quyi,15%(3nafar)bolalar esnash,yo'talish o'rniga "A"tovushini qattiq talaffuz etib, noto'g'ri bajardilar,20%(4 nafar)bolalar qiyinchilik bilan , 25%(5 nafar)bolalar topshiriq qayta takrorlangach logoped yordami ostida bajarib o'rtadan yuqori va 25%(5 nafar) bolalar xech qanday kamchiliklarsiz to'g'ri bajarib yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldilar.

"A" unli tovushini qattiq talaffuz qilish mashqini 10%(2 nafar)bolalar "A" unlisini sekin oxangda talaffuz qildilar,10%(2 nafar)bola qiyinalib talaffuz etdilar qolgan 30% (6 nafar)bolalar topshiriqni logoped ko'rsatmasidan so'ng bajardilar,50%(10 nafar) "A" unlisini to'g'ri talaffuz eta oldilar.

(Dinamik mashqlar)

Til uchini o'ng va chap lunjga tekkizish mashqini 25%(5 nafar) bolalar bajarishga qiynaldi ya'ni tilini o'ng va chap tomonga xarakatlantira olmadi.,25%(5 nafar) bolalar esa tillarini faqat bir tomongagina xarakatlantira oldilar , qolgan 35%(7 nafar) bolalar topshiriqni qisman to'g'ri va 15%(3 nafar)bolalar logoped ko'magi ostida bajara olib o'rtadan yuqori natijalar bilan baxolandilar.

Til bilan yuqori va pastki labni yalash mashqini 40%(8 nafar)bolalar umuman tili bilan lablarini yalay olmadi ,40%(8 nafar) bolalar faqat pastki lablarini yalay oldilar ,qolgan 15%(3 nafar)bolalar topshiriqni qiynalib qisman to'g'ri va 5%(1 nafar) bola topshiriqni ko'rsatma asosida bajara oldi.

Til uchini og'izning bir burchagidan ikkinchisiga xarakatlantirish (soatcha)mashqini 25%(5 nafar)bolalar qiyinchilik bilan ,15%(3 nafar) bolalar tilini

aytilganidek xarakatlantira olmadilar (gipersalivatsiya kuchli),40%(8 nafar)bolalar tillarini og'izning bir burchagidan ikkinchi burchagiga olib kela olmay noaniq xarkatlarni ifodaladilar ,15%(3 nafar) bolalar ko'rsatma ostida va 5%(1 nafar)bola to'g'ri bajara oldi.

Pastki jag'ni o'ng va chap tomonga xarakatlantirish mashqini 20%(4 nafar)bolalar Pastki jag'ni o'ng va chap tomonga xarakatlantira olmadilar,80%(16 nafar)bolalar pastki jag'ni emas pastki labni xarakatlantira oldilar xolos .

Arg'imchoq mashqini bajarish jarayonida 10%(2 nafar) bolalar tilni uzun-ingichka qilib chiqarib gox burun gox iyak tomon olib bora olmadilar,70%(14 nafar)bola topshiriqni bajarishda tillarini yuqoriga burun tomon xarakatlantira olmadilar,20%(4 nafar) bola tilini iyakdan burun tomon qiyinchilik bilan xarakatlantira oldilar.

“Otcha” mashqida til tanglay tomon so'rilib so'ng qo'yib yuborish mashqini 20%(4 nafar) bolalar topshiriqni bajarishda tillarini tanglayga tekkiza olmadilar, 15%(3 nafar)bolalar tillarini tanglayga olib bordilar va tanglayda tilini xarakatlantirdilar bo'yoqchi mashqi singari,15%(3 nafar)bolalar otcha mashqini qiynalib bajardilar,25%(5nafar)bolalar ko'rsatma asosida va 25% (5 nafar)bolalar xech qanday kamchiliklarsiz bajarib yuqori natijalarga ko'rsatkichlar bilan baxolandilar.

Lunjlarni ichga tortish mashqini bajarishda 40%(8 nafar) bolalar pastki lablarni ichiga tortilar ,60%(12 nafar)bolalar topshiriqni bajarishda lunjlarini umuman ichga torta olmadilar

Lunjlarni baravar ishirish mashqini bajarishda 10%(2 nafar)bolalar lunjlarini emas og'izlarini katta ochib berdilar , 25%(5 nafar)bolalar lunjlarini baravar ishira olmadilar, ,30% (6 nafar)bolalar lunjlarini ishirishga biroz qiynaldilar ,20%(4 nafar) bolalar esa topshiriqni ko'rsatma ostida va 15%(3 nafar) bolalar esa xech qanday kamchiliklarsiz bajardilar.

2.Mayda qo'l motorikasini tekshirish natijalari.

Dizartrik bolalarning ko'pchiligida BTSF kuzatilganligi uchun umumiy va mayda qo'l motorikasi buzilgan bo'ladi. Mayda qo'l motorikasini harakatchanligini tekshirish uchun tanlangan topshiriqlarga bolalar katta qiziqish bilan qaradilar, biroq bularni bajarishda qiyinchiliklarga uchradilar. Aksariyat bolalar vazifalarni sekinlik bilan bajardilar. Qo'l va barmoqlar motorikasi, etakchi qo'l, kaft xamda barmoqlarning umumiy xolatini aniqlashda qo'llaniluvchi ish qo'rinishlarini M.I. Koltsovaning "Gotovimsya pisat" nomli qo'llanmasidan keltirishni ma'qul deb topdik.

Mayda qo'l motorikasi harakatchanligini tekshirish bo'yicha olingan ma'lumotlar 5-jadvalda yoritildi.

5-jadval

	Mayda qo'l motorikasini tekshirish bo'yicha topshiriqlar	Bolalarning topshiriqlarni bajarganligi (%) xisobida.					O'rta ko'rsatkich
		5	4	3	2	1	
1	Barmoqlar salomlashdilar	25%	25%	35%	15%	-	3,9
2	Barmoqlarni navbatma-navbat mushtum xolatiga keltirish va ochish.	-	-	55%	25%	20%	2,3
3	Qalamlarni qalamdonga solish.	50%	30%	15%	5%		4,2
4	Yo'lchalar	-	-	35%	35%	30%	2
5	Nuqtalar	-	-	35%	35%	30%	2
6	SHtrixlash		-	25%	35%	40%	1,8
7	CHimdim tuz sepayotgan barmoqlar xarakatini ifodlash	20%	20%	35%	25%		3,4
8	Arqonchani tayyoqchaga o'rash.		- 20%	45%	20%	15%	2,9
9	Etakchi barmoqni aniqlash: Labirint		- 25%	40%	20%	15%	2,8
10	CHapak chalish	40%	30%	30%			3,1

Jami	2,9
------	-----

Mayda qo'l motorikasini tekshirish bo'yicha olingan natijalarni ko'rsatishicha barmoqlar salomlashdilar topshirig'ini 15%(3nafar)bola bajara olmadi ya'ni barmoqlarini bir-biriga tekkizisha olmadilar ,35%(7 nafar)bolalar logoped-tarbiyachi ko'rsatmasi asosida bajardilar,25%(5 nafar)bola topshiriqni qayta takrorlangach bajardilar qolgan 25%(5 nafar)bolalar topshiriqni to'g'ri bajardilar.

Barmoqlarni navbatma-navbat mushtum xolatiga keltirish va ochish topshiriqini 20% (4 nafar)bola topshiriqni bajarish jarayonida mushtumlarini navbatma-navbat ocha olmadi, 25%(5 nafar)bola mushtumlarini yarmigacha ocha oldi,55%(11 nafar)bolalar esa logoped ko'rsatmasi ostida bajardilar.

Qalamlarni qalamdonga solish topshirig'ini 5%(1 nafar)bola qalamlarni qalamdonga bo'yiga emas eniga solishga xarakat qildi bu topshiriqni bajara olmadi, 15%(3 nafar)bolalar logoped ko'rsatmasi ostida bajardilar, 30%(6 nafar)bolalar topshiriqni qayta takrorlangach bajardilar qolgan 50%(10 nafar)bolalar topshiriqni xech qanday kamchiliklarsiz bajardilar.

Yo'lchalar bo'ylab qalamni yurigizish topshirig'ini 30% (6nafar bolalar bajara olmadilar ,35% (7 nafar) bolalar topshiriqni noto'g'ri bajardilar, qolgan 35% (7 nafar) bola logoped yordamida bajardilar.

Nuqtalar topshirig'ini 30% (6 nafar) bolalar bajara olmadilar ya'ni berilgan nuqtalar ustidan qalamni yurgiza olmadilar,35% (7 nafar) bolalar nuqtali rasmlarni noto'g'ri chizib chiqdilar qolgan 35% (7 nafar) bola logoped yordami ostida bajardilar.

SHtrixlash topshirig'ida 40%(8 nafar)bolalar qalam bilan rasmni shtrixlay olmadilar,35%(7 nafar)bolalar topshiriqni noto'g'ri ya'ni rasmlarni bo'yab chiqdilar, qolgan 25%(5 nafar)bola logoped yordamida ostida bajardilar.

CHimdim tuz sepayotgan barmoqlar xarakatini ifodalash topshirig'ini 25%(5 nafar)bola bajara olmadi,35%(7 nafar)bolalar logoped yordamida bajardilar,20%(4

nafar)bola topshiriqni takrorlangach bajardilar qolgan 20%(4 nafar)bolalar topshiriqni xech qanday kamchiliklarsiz to'g'ri bajardilar.

Arqonchani tayyoqchaga o'rash topshirig'ini 15%(3nafar) bolalar bajara olmadilar,20% (4nafar) bolalar arqonchani tayyoqchaga bog'lashni noto'g'ri bajardilar,45% (9nafar) bolalar logoped yordamida va qolgan 20% (4nafar) bolalar topshiriqni qayta takrorlangach bajardilar.

Etakchi barmoqni aniqlashda:Labirint bo'ylab barmoq bilan yurish topshirig'ini 15%(3 nafar) bolalar bajara olmadilar, 20% (4 nafar)bolalar bir emas beshta barmoq bilan bajardilar,40% (8ta)bolalar logoped yordamida va qolgan 25%(5 nafar) bolalar topshiriqni takrorlangach bajardilar.

CHapak chalish topshirig'ini 30%(6 nafar)bolalar logoped yordamida , 30% (6 nafar)bolalar topshiriqni takrorlangach bajardilar va qolgan 40%(8 nafar) bolalar topshiriqni xech qanday qiyinchiliksiz bajardilar.

Umumiy ko'rsatkich-2,9

3.Tovushlar talaffuzini tekshirish natijalari

Dizartrik bolalarning tovushlar talaffuzini tekshirish jarayonida,bunday bolalarda,tovushlar talaffuzida turg'un kamchiliklar kuzatilmadi. Bolalar tovushlarni ,bo'g'inlarda so'zlarda buzib talaffuz qildilar.Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jixatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan:sirg'aluvchi(s,z,ts) va shovqinli (sh,j,ch),sonor(l,r),chuqur til orqa (q,g')tovushlarida uchradi.

Bolalarda tovushlar talaffuzining buzilishi,ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo'ldi.

Tovushlar talaffuzi holatini biz logopediyada qabul qilingan klassifikatsiyada,ya'ni noto'g'ri talaffuz etilgan tovushlarni guruxlarga taqsimlash(sonor,shovqinli,sirg'aluvchi)asosida taxlil qildik.Tekshirish Jarayonida shunday xolatlar uchradiki,ba'zida bolalar tovushni bir so'zda to'g'ri talaffuz etdilar,ba'zi so'zlarda esa boshqa tovushlarga almashtirdilar.Bolalarning iborali nutqida tovushlar differentsiatsiyasining buzilganligi aniqlandi.Ular ayrim

tovushlarni aloxida to'g'ri talaffuz qildilar,lekin nutqda bu tovushlarni boshqa tovushlarga almashtirdilar.

6-jadval

	Tovushlar talaffuzini tekshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar	Bolalarning topshiriqlarni ko'rsatkichlari					O'rta ko'rsatkich
		5	4	3	2	1	
1	Unli tovushlar (a,o,u,i,e)	60%	20%	10%	-	10%	4,2
2	Sirg'aluvchi,shovqinli,affrikat tovushlar(s,z,sh,j,ch)	20%	15%	45%	10%	10%	3,4
3	Sonor tovushlar(r,l,m,n)	15%	20%	35%	15%	15%	3
4	Til orqa tovushlar (k,g,x)	20%	25%	35%	10%	10%	3,6
5	CHuqur til orqa tovushlar (q,g',h)	25%	20%	35%	10%	10%	3,4
6	Jarangli va jarangsiz tovushlar	25%	25%	30%	10%	10%	
	Jami	3,5					

Dizartrik bolalarning tovushlar talaffuzini tekshirishda quyidagilar aniqlandi:

Unli tovushlar talaffuzini tekshirishda- 10%(2nafar)bolalarda unli tovushlarni talaffuz eta olmasliklari aniqlandi,10%(2 nafar) bolalar tovushlarni buzib talaffuz qilganliklari,20%(4 nafar) bolalar unli tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtirdilar va 60%(12 nafar)bolalar unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilganliklari aniqlandi.

Sirg'aluvchi tovushlar talaffuzi tekshirilganda 10% (2 nafar) bolalar sirg'aluvchi, afrikat, shovqinli tovushlarni talaffuz eta olmadilar, 10% (2 nafar) bolalar tovushlarni nutqda tushurib qoldirilar, 45% (9 nafar) bolalar sirg'aluvchi tovushlarni noto'g'ri buzib talaffuz etdilar, 15% (3 nafar) bolalar esa boshqa tovushlar bilan almashtirdilar va qolgan 20% (4 nafar) bolalar sirg'aluvchi tovushlarni to'g'ri talaffuz etidilar.

Sonor tovushlar talaffuzi tekshirilganda 15% (3 nafar) bolalar sonor tovushlarni talaffuz eta olmasliklari, 15% (3 nafar) bolalarda tovushlarni nutqda tushirib qoldirilishi, 35% (7 nafar) bolalarda buzib talaffuz qilinishi, 20% (4 nafar) bolalarda sonor tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtirilishi va qolgan 15% (3 nafar) bolalarda to'g'ri talaffuz etilishi aniqlandi.

Til orqa tovushlar talaffuzi tekshirilganda 10% (2 nafar) bolalar Til orqa tovushlarni talaffuz eta olmasliklari, 10% (2 nafar) bolalarda tovushlarni nutqda tushirib qoldirilishi, 35% (7 nafar) bolalarda til orqa tovushlarini buzib talaffuz qilinishi va qolgan 20% (4 nafar) bolalarda esa til orqa tovushlarni to'g'ri talaffuz etilishi aniqlandi.

CHuqur til orqa tovushlar talaffuzi tekshirilganda 10% (2 nafar) bolalarchuqur til orqa tovushlarni talaffuz eta olmasliklari, 10% (2 nafar) bolalardanutqda tushirib qoldirish xolati kuzatildi, 35% (7 nafar) bolalarda buzib talaffuz qilinishi, 20% (4 nafar) bolalarda chuqur til orqa tovushlarini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi va qolgan 25% (5 nafar) bolalarda esa chuqur til orqa tovushlarini to'g'ri talaffuz etilishi aniqlandi.

Jarangli va jarangsiz tovushlar talaffuzi tekshirilganda 10% (2 nafar) bolalar jarangli va jarangsiz tovushlarni talaffuz eta olmasliklari 10% (2 nafar) bolalarda tovushlarni nutqda tushurib qoldirish xolati kuzatildi, 30% (6 nafar) bolalarda buzib talaffuz qilinishi, 25% (5 nafar) bolalarda jarangli va jarangsiz tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtirilishi va qolgan 25% bolalarda esa jarangli va jarangsiz tovushlarni to'g'ri talaffuz etilishi aniqlandi.

Umumiy ko'rsatkich -3,5

4 Fazoviy mo'ljal olish ko'nikmalarini tekshirish natijalari.

Fazoda mo'ljal olish faoliyatni fazoda to'g'ri tashkil etish – murakkab faoliyat bo'lib, unda xam o'ng xam chap yarimsharlar ishtirok etadi.

Dizartrik bolalafazoviy mo'ljal olish faoliyatlari tekshirilganda shu narsa aniqlandiki, bolalar chap va o'ng qo'llarini bir necha og'zaki ko'rsatmalardan keyingina ko'rsata oldilar. Predmetlarning fazodagi o'rmini aniqlashda xam biroz qiynaldilar va logoped ko'magi ostida bajardilar. Elementlarni bir tekisda ifoda etish topshirig'ini bajarishda esa qo'pol xatolarga yo'l qo'yidilar faqtgina ayrim bolalar logoped ko'magi ostida yoza oldilar. Bolalarning fazoviy mo'ljal olish ko'nikmalarini tekshirish natijalarini 9- jadvalda qayd etdik.

10-jadval

	Fazoviy mo'ljal olish bo'yicha berilgan topshiriqlar	Bolalarning topshiriqlarni bajarganligi ko'rsatkichlari (%) xisobida					O'rta ko'rsatkich
		5	4	3	2	1	
1	CHap, o'ng qo'lni aniqlash	15%	25%	45%	15%		3,4
2	Predmetlarning fazodagi o'rmini aniqlash.	10%	30%	40%	10%	10%	3,1
3	Elementlarni bir tekisda ifoda etish.	-	-	35%	35%	30%	2
	Jami	3					

Dizartirik bolalarning fazoviy mo'ljal olish ko'nikmalarini tekshirish natijasida quyidagilar aniqlandi:

Chap va o'ng qo'lni aniqlash topshirig'ini 15%(3nafar)bola chap va o'ng qo'lni adashtirib yuborib o'rtadan quyi, 45% (9nafar) bolalar logopedning so'zli ko'rsatmasi yordamida bajarib o'rta, 25%(5nafar)bolalar o'rtadan yuqori va 15%

(3nafar)bola topshiriqni hech qanday kamchiliklarsiz bajarib yuqori natijalarga erishdilar .

Predmetlarning fazodagi o'rnini aniqlash topshirig'ini 10%(2nafar)bola bajara olmay quyi, 10% (2nafar) bolalar predmetlarning fazodagi o'rnini ko'rsatib bera olmagan holda o'rtadan quyi, 40% (8nafar) bolalar logoped yordamida bajarib o'rta,30%(6nafar)bolalar o'rtadan yuqori va 10%(2ta)bola topshiriqni hech qanday kamchiliklarsiz to'g'ri bajarib yuqori natijalarga erishdilar.

2-bob bo'yicha xulosa

Xozirda respublikada bolalar ta'lim va tarbiyasining yangi tashkiliy shakllarini yaratish,yangi korreksion texnologiyalarni ishlab chikish ustida tinimsiz ish olib borilmokda,ruxiy-jismoniy rivojlanishda orkada kolgan bolalar uchun kompleks yordam kursatilmokda.Bolaga xayotining ilk davrlarida yordam kursatish ishi ayniksa dolzarb muammo bulib kolmokda.

Dizartriyada artikulyatsiya mushaklarining xarakatchanligining yetarli emasligi natijasija tovushlar talaffuzida kamchiliklar kelib chiqadi.

Bundan tashqari bunday bolalarda umumiy va mayda qo'l motorikasida xam kamchiliklar kuzatiladi.

Dizartrik bolalar nutqini tekshirish ishlari buyicha olib borilgan tadjikot natijasida biz kuyidagi xulosalarga keldik: tadjikot taxlili shuni kursatdiki ;

Olib borilgan tadjikot ishimiz natijalarining ko'rsatishicha dizartrik bolalar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarida korreksion rivojlantiruvchi ishlar samaradorligini yanada oshirish bolalarning kamol topishida muxim ahamiyatga egadir.

Ikkkinchi bobga xulosa tarikasida shuni aytish mumkinki dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlari qancha erta aniqlansa va o'z vaktida samarali logopedik yordam ko'rsatilsa, bu kamchilaklarni oldini olish hamda logopedik mashg'ulotlar natijasi xam shuncha samarali bo'ladi.

3. Bob Dizatrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish texnologiyasi

3.1 Dizatriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda yozuv jarayoni o'zlashtirilishining o'zigi xos xususiyatlari va qiyinchiliklari.

Yozuvning psixolingvistik taxlili birinchi bo'lib A.R.Luriya tomonidan "Ocherki psixofiziologii pisma" nomli kitobiga kiritilib, uni to'laligicha zamonaviy kognitiv neyropsixologiyaning boshlanishi deb atash mumkin. Keyinchalik disleksiya va disgrafiya bo'yicha rus va chet el olimlarining ishlari bu tadqiqot yo'nalishining samaradorligini ko'rsatdi

Yozuvni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni neyropsixologik taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, barcha A.R.Luriya tomonidan aniqlangan miyaning strukturali funktsional komponentlari bola yozuvi jarayonida, yangi turdagi faoliyatni o'zlashtirishni boshlashida ishtirok etadi. Bunda yozuv tarkibining funktsional tizimi kompensatsiyasi quyidagicha ta'minlanadi.

1-blok tonus va tetiklikni boshqaruvchi blok. Miya po'stlogini yozuv jarayonida faol tonuslar bilan ta'minlash.

2-blok axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki.

1. Nutq eshituv axborotlarini qayta ishlash – tovushlarni eshitish, leksemalarni aniqlash nutq eshituv xotirasi.

2. Kinestetik axborotlarni qayta ishlash artikulyatsiyani farqlash: grafik xarakterlarni kinestetik taxlil qilish.

3. Ko'ruv axborotlarni qayta ishlash – xarf va so'zlarni ko'ruv obrazlarini faollashtirish.

4. Polimodal axborotlarni qayta ishlash-xarf elementlari, fazodagi chiziqlar ko'ruv motor kordinatsiyasi, so'zlarni obrazlarni faollashtirish.

3-blok Dasturlash, boshqarish va nazorat qilish.

1. Xarakatlarni efferent (seriyali) tashkil etish – grafik xarakatlarni motor (kinestetik) dasturlash.

2. Psixik faoliyatlarni boshqarish – yozuv aktini dasturlash, boshqarish va nazorat qilish.

Yuqoridagi sanab o'tilgan har bir komponentdagi nuqsonlar yozuvdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, ular aloxida yoki birgalikda ta'sir etishi kuzatiladi. Yozuv jarayonini yana xarakat faolliligiga javob beruvchi mexanizmlar – muskullar tonusi, bir meyorda ushlab turishi, xarakatlar kordinatsiyasining shakllanmaganligiga xam ahamiyatli tarzda qiyinlashtirishi mumkin. bundan tashqari yozma nutq matni dasturlashga, uni tuzishga, yozuvda to'la va aniq aks ettirishga katta talablar qo'yilganligi sababli bola og'zaki nutqining barcha zaif tomonlari xam yomon ta'sir qiladi.

A.N.Kornev tomonidan bolalarda yozma nutq nuqsonlarining yuzaga kelish sabablarini nisbatan to'liq tahlil etilgan

Birinchi guruh – bu konstituttsional buzilishlar bo'lib, miya yarim sharlari funktsional sohalari shakllanishining individual o'ziga xosligi, ota-onalarda ham yozma nutq buzilishlarining mavjudligi, qarindoshlarda psixik kasalliklar bo'lishi bilan shartlanadi.

Ikkinchi guruh – bu rivojlanishning prenatal, perinatal va postnatal davrlarida salbiy ta'sirlar natijasida vujudga keluvchi entsefalopatik nuqsonlar bilan shartlanadi. Ontogenezning ilk bosqichlarida (prenatal davrda) jarohatlanish ko'pincha qobiq osti tuzilishi bilan bog'liq rivojlanishdagi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Patologik omillarning nisbatan keyin (tug'ruq va postnatal rivojlanishda) ta'sir etishi aksariyat xollarda miyaning katta yarim sharlariga dahldor bo'ladi. Salbiy omillarning ta'siri miya tizimlarining rivojlanishidagi “dizontogeniy” (qo'pol bo'lmagan, rezidual xolat) nomini olgan nuqsonlarga, ayrim miya funktsiyalarining notekis rivojlanishiga (minimal miya disfunktsiyalariga) olib keladi. Miyaning biron-bir sohasi rivojlanishidagi notekislik ma'lum funktsiyalarni ta'minlovchi psixikaning funktsional tizimlari shakllanishiga salbiy ta'sir etadi.

Neyropsixologik ma'lumotlarga ko'ra (E.G.Simernitskaya, L.S.TSvetkova,; T.V.Axutina,; A.V.Semenovich,)miya peshona sohasining funktsional ravishda yetarlicha shakllanmaganligi va mana shu bilan bog'liq bo'lgan psixik faoliyat neyrodinamikasi komponentlarining yetarli bo'lmasligi yozuvni faoliyat sifatida tashkillashtirilishidagi nuqsonlarda namoyon bo'lishi mumkin (diqqatning turg'unsizligi, dasturni o'zlashtira olmaslik, o'z-o'zini boshqarishning yetarli emasligi). O'ng yarim sharlarning funktsional ravishda yetarlicha shakllanmaganligi fazoviy tasavvurlarning yetarlicha emasligida, fazoda harakatlarni tashkillashtirishdagi nuqsonlarda, eshituv-nutqiy va ko'ruv etalonlarining ketma-ketlikda namoyon etishdagi nuqsonlarda namoyon bo'lishi mumkin. CHap chakka sohalarining funktsional ravishdagi yetarlicha shakllanmaganligi tovushlarni farqlashdagi qiyinchiliklarni, bolada fonematik eshituvni shakllantirishdagi nuqsonlarni, tanlash qismidagi eshituv-nutqiy xotiraning yetishmasligini vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Miya qobiq ostidagi tuzilmalarning yetarli emasligi psixik faoliyatning fon komponentlarining: ravonligi, ko'chirilishi, tonusi darajasi, shu jumladan yozuvning ham yetarli bo'lmasligiga olib keladi, buning natijasida esa yozuvlarni grafik boyitilishi ham zarar ko'radi.

A.N.Kornev yozma nutq nuqsonlari patogenezi bilan dizontogenezning uch ko'rinishini o'zaro bog'laydi:

*Psixik funktsiyalarning rivojlanishdan orqada qolishi;

*Ayrim sensomotor va intellektual funktsiyalarning rivojlanishidagi turli-tumanlik (asinxroniya);

*Bir qator psixik funktsiyalarning partsial ravishdagi to'liq rivojlanmasligi.

*Disgrafiya etiologiyasining entsefalopatik ko'rinishida asinxronlik va psixik funktsiyalarning partsial ravishdagi to'liq rivojlanmasligi xolatlari ustunlikka ega bo'ladi. Bunday turdagi dizontogenez intellektning asosi (suktessiv funktsiyalar, ko'ruv-motor koordinatsiyalar, fazoda mo'ljal olish, diqqat, xotira, nutqiy ko'nikma va boshqa funktsiyalar) shakllanishiga ta'sir etadi.

Disgrafiyaning paydo bo'lish sabablarining uchinchi guruhi – bu yoqimsiz ijtimoiy va muhit omillaridir. Ularning yozma nutq buzilishlari patogeneziga bo'lgan ta'siri juda ahamiyatlidir. Muallif xuddi shunday omillarga quyidagilarni kiritadi:

*Savodga o'rgatish ishlarini bola bunga jismoniy va psixologik tayyor bo'lmasidan boshlash;

*Savodga o'rgatish jarayonida bolaning imkoniyatlarini hisobga olmasdan topshiriqlarning hajmi va darajasini belgilash;

*O'qitish metodlari va tempining bolaning individual xususiyatlarini hisobga olmagan xolda qo'llash.

A.N.Kornevning fikriga ko'ra, yozma nutqni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar asosan uchta guruhga doir xodisalarning uyg'unlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi: miya tizimidagi biologik kamchiliklar; shu kamchiliklar asosida yuzaga keluvchi funktsional yetishmovchilik; rivojlanishida orqada qoluvchi va psixik funktsiyalari yetarlicha yetilmaganlarga nisbatan yuqori talablarni qo'yuvchi muhit sharoitlari.

Dizartrik bolalarda yozma nutqni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga asosiy sabab barmoqlar va ushlab funktsiyasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Yozuv aktining buzilishi asosan kaft mushaklarining zaifligi, tonusining pastligi majburiy xarakterli xarakterlarni qilish, ixtiyoriy qisqarib bo'shish qobiliyati yo'qligidir. Bunda bola (o'quvchi) ko'pincha ruchkani noto'g'ri ushlaydi, yozuv butun kaft ba'zida butun qo'l xarakatlari bilan amalga oshadi. Barmoqlar qattiq zo'riqib xarakatsiz bo'lib ruchkani maxkam ushlab oladi. Bu esa bolalarni juda sekin yozishiga, xarflarning bir xil kattalikda bo'lmasligiga sabab bo'ladi. SHu bilan birga ikki elementdan iborat xarflarni qo'shib yozishda qiyinchiliklar kuzatiladi

Dizartrik bolalarda noto'g'ri yozuvni asosan ikki turini ajratish mumkin.

-O'quvchi yozuvni bor kuchi bilan bir xil kattalikdagi harflar bilan boshlaydi, keyin ularni o'lchami o'zgarib boshlaydi, qatorlar pastga tushib ketadi.

-O'quvchi mayda harflar bilan yozishni boshlaydi, keyin esa harflar yiriklashib boradi. Yozuvni noteksligi asosan giperkuziyali bolalarda kuzatiladi, qo'llarning betartib xarakati yozuv vaqtida barmoqlarni ishlashiga xalaqit beradi. SHuning uchun

bu bolalarda yozuv jarayoni boshida yaxshi boshlanib keyin to'liqsimon ,uzuq-yuluq bo'lib,qatorlar pastga yoki yuqoriga qarab ketadi.Dizartrik bolalarda tashqi muxitni analiz-sintez qila olmaslik kuzatiladi.Bu ko'pincha o'qish,yozish,jismoniy mashqlar qilish jarayonida yuzaga keladi.Bunda bolalar o'ng va chapni ajratishga qiynaladilar.Ular daftardagi chiziqlarni ajratisha olmaydi,daftarni xoxlagan tomonidan yozishni boshlaydilar,kitobni esa xoxlagan joyidan o'qishlari mumkin.Dizartrik bolalarda yozuv kamchiliklarining o'ziga xosligi "oynali yozuv" hisoblanib, o'ng tomonida gemiparezi bo'lgan bolalar chap qo'li bilan yozganda ta'lim olishning dastlabki bosqichlarida namoyon bo'ladi. Qator xollarda yozuv kamchiliklari bo'g'in va harflarni tashlab ketish, joylashgan o'rni va artikulyatsion jihatidan bir-biriga yaqin undosh tovushlarni adashtirish va almashtirish tarzida namoyon etiladi.

Dizartrik bolalarda ko'p uchraydigan yozuvdagi qiyinchiliklar:

Xarakatlarning ixtiyoriy boshqarishni shakllanmaganligi ixtiyoriy diqqatni to'plashdagi, topshiriqlarda mo'ljal olishning bir turdagi mashg'ulotdan boshqasiga o'tishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bularga: xarf, so'z ,bo'g'inlar,topshiriqlarni persevaratsiyasi(inert takrorlash): xarf va bug'inlarni tushurib qoldirish ,xarflar va so'zlarni bir-biriga qo'shib yozilib ketishi, diqqatni taqsimlay olmaslik yozuvning texnik tomoni va orfografik qoidalar o'rtasida – bolalarda yozilgan harflarni ko'chirib yozishda xatoliklar sodir bo'ladi.

Bosh miya qobig'ining faol tonusini ishchi xolatda ushlab turishdagi qiyinchiliklar – bu xam yozuvda keng tarqalgan qiyinchiliklardan biri. Bolalarda yuqori darajadagi charchoq ,ish qobilyatining tebranishi chorak xafta ,kun dars davomida kuzatiladi. Odatda bunday bolalar topshiriqni bajarishga tezda kirishmaydi,uni boshlab ,tezda charchaydi,oradan bir qancha vaqt o'tgach ish holati qaytadi,lekin endi bu holat past darajada bo'ladi. Bola yana charchaydi partaga yotib oladi yoki undan sirg'anib tushadi.CHarchoq fonida bola yana bir qancha xatoliklar qiladi va eng avvalo dasturlash va nazorat qilish bilan bogliq xatoliklar bu bolalarga xosdir. Bolalar sekin yozadi,yozish ko'nikmalari qiyinchilik bilan avtomatlashtiriladi,yozuv paytida muskullar tonusi ortishi mumkin,bola ishchi

xolatni ushlab turishi qiyin, xarflarning kattaligi, bosim, bukilish charchoqqa bog'liq ravishda tebranadi.

Zamonaviy neyropsixologlar tadqiqotlari fazoviy xatoliklar mexanizmini aniqlash imkonini beradi.

Dizartik bolalarda ko'ruv-fazoviy disgrafiyadagi yozuv ko'nikmalarini o'zlashtirishni taxlil qilishda ,quyidagi xususiyatlar aniqlanadi:

1. Daftar varog'ida mo'ljal olishdagi ,xat boshini topishdagi qiyinchiliklar.
2. Qatorlar orasidagi masofani saqlashdagi qiyinchilikla
3. Xarflarni balandligi va egilishida doimiy tebranishlar ,xarf elementlari xajmiga tugri kelmasligi ,so'z o'rtasida xarflarni ajratib yozish
4. Zarur xarfni grafik va xarakat obrazini faollashtirishda qiyinchiligi ,yozilishiga ko'ra o'xshash xarflarni almashtirishdagi (m-n,i-sh) yozuvdagi xarflarni,bosma xarflar bilan almashtirish ,xarflarni, ayniqsa yozuvdagi xarflarni noodatiy yozish usuli kuzatiladi.
5. d-p, u-n, d-b xarflarini yozishda oynavand yozuvning turg'unligi , k-h, y-g, l-i, xarflarini almashtirilishi.
6. Tassavurda yozish ko'nikmalarining xosil qilishni imkoniyatini yo'qligi.
7. Unlilarni, shuningdek urg'uli unlilarni tushurib qoldirish va almashtirish .
8. Xarflar ketma-ketligining buzilishi
9. Fonetik yozuv qiyinchiliklari (ketdi o'rniga keti)
10. So'zni obrazini butunligicha farqlay olishdagi qiyinchiliklar buni oqibatida ikkita so'z ,qo'shilib yoziladi,keyinchalik qo'shimchalar so'z o'zaklaridan aloxida yoziladi.

Fazoda mo'ljal olish faoliyatini fazoda to'g'ri tashkil etish – murakkab faoliyat bo'lib, unda xam o'ng xam chap yarimsharlar ishtirok etadi. Bunda erta shakllanuvchi funktsiyalar o'ng yarimshar ishiga bogliq. Ko'ruv motor kordinatsiyalari unga bogliq bo'lib vertikal va gorizontal kordinatalar bo'yicha xarakatlarni mutanosiblashtirish imkoni, qismlarni umumiy joylashuvi va bir yaxlit obrazni olish xam o'ng yarimsharlarga bog'liq.

Miyaning bu bo'limlari bog'liqlikda ishlashi xar bir murakkab psixologik jarayonlarni shuningdek nutq, o'qish va yozishni xam me'yorda kechishi uchun zarurdir. Ammo bosh miyaning u yoki bu maydoni jaroxatlansa yoki rivojlanmay qolsa, shu maydon bilan bog'liq funktsiyalar ishi va shuningdek shunga mos psixofiziologik jarayonlar buziladi. Bundan ko'rinib turibdiki ,psixofiziologik jarayonlar qancha buzilgan bo'lsa ,bu uni me'yorda ishlashiga shuncha ta'sir ko'rsatadi.

3.2. Dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini oldini olish bo'yicha pedagogik tavsiyalar

Nutqiy nuqsonga samarali ta'sir ko'rsatish to'g'ri tashxislash va oldini olishning nisbatan ma'qul bo'lgan pedagogik yo'llarini tanlab olish uchun, nutqiy nuqsonlarning xarakterini, uning darajasi va qanchalik chuqurligini aniqlash , ular nutq tizimining qaysi komponentlariga tegishli ekanini tahlil qilishni bilish muhimdir – deb ta'kidlaydi R.E.Levina

Disgrafiyaning korrektsiya qilish uning ilk boshlanishida samarali bo'lib, uning profilaktikasi esa – disgrafiyaning rivojlanishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beruvchi yanada samarali usuldir. Mana shuning uchun ham bolalarda namoyon bo'layotgan disgrafiyaning vujudga kelishi jarayonida kuzatiluvchi ilk belgilarni bartaraf etish yo'li orqali maktabgacha yosh davrining o'zidayoq disgrafiyaning yuzaga kelish ehtimolini oldini olish zarur.

L.G.Paramonovning qayd etishicha, disgrafiyaning vujudga kelish ehtimolini mavdujligining o'ziyoq patologiya hisoblanib, normal nutqiy rivojlanishdan orqada qolishni belgilab beruvchi nuqsonlarning yana bir asosiy ko'rinib turuvchi belgisidir. Bunday nuqson bolada bu yosh davriga kelib shakllanib bo'lgan bo'lishi kerak bo'lgan biron-bir psixologik funktsiyaning (yoki funktsiyalarning) yetarli darajada shakllanmaganligida namoyon bo'ladi. Disgrafiyaning vujudga kelish ehtimolini mavdujligi disgrafiya borligidan, lekin hali yashirin ko'rinishda ekanligidan dalolat beradi. U toki bola qo'lga ruchka va daftarni olmaganiga qadar

“yashirish” tarzda namoyon bo’laveradi. L.G.Paramonovanning ishlarida har bir asosiy ko’rinishdagi disgrafiyaning vujudga kelish ehtimoli ko’rib chiqiladi va shuningdek, ularni aniqlash, oldini olish, hamda bartaraf etishning aniq usullari tavsiflanadi.

Ko’pgina o’quvchilarning ona tili bo’yicha orqada qolishlari tasodifiy xolat bo’lmay, buning sabablarini maktabgacha yosh davri va xattoki, undan ham avvalgi yosh davridan izlash kerak. Va albatta, disgrafiyaning profilaktikasi haqida gapirishdan oldin, asosan quyidagi ikki xolatga bog’liq ravishda paydo bo’luvchi bevosita nutqiy buzilishlarning profilaktikasini ko’rib chiqish muhimdir:

1. Bolaning jismoniy va nerv-psixologik sog’ligi va quyidagi nutqiy organlarining saqlanganligi haqida qayg’urish:

bosh sohasidagi jarohatlarni oldini olish;

tananing yuqori harorati bilan kechadigan infeksiyon va boshqa kasalliklarni oldini olish (emlash muddatlariga rioya etish va kasal bolalar bilan muloqotda bo’lishdan asrash va boshqalar.);

bolaning eshitish organlarini shamollashdan, yot jismlardan va ortiqcha shovqindan (hattoki uyqu vaqtida ham) asrash, shuningdek, quloq kasalliklarini o’z vaqtida va ohirigacha davolash;

quyidagilardan iborat bo’lgan artikulyatsion organlarni saqlash ishlarini olib borish:

a) raxit va buning oqibatida vujudga kelishi mumkin bo’lgan nutqiy apparat suyaklari anomaliyalarini oldini olish (va davolash);

b) (jag’ deformatsiyasini keltirib chiqaruvchi omil sifatidagi ko’riladigan) barmoqni so’rish va uyqu vaqtida doimiy ravishda yonoqlari ostiga qo’llarini qo’yib uxlash odatlarini bartaraf etish;

v) bolalarda tishlarni tushib ketishi qo’shni tishlarning va jag’ning deformatsiyalanishini keltirib chiqarganligi sababli, vaqtdan ilgari tishlar tushganda yoki olib tashlanganda ular o’rniga protez tishlarni o’rnatish (bu xolatda tishlarning yoshga doir almashinishi nazarda tutilmayapti);

g) yuqori lab va tanglaydagi teshiklarni o’z vaqtida operatsiya qilish;

d) kalta til yuganchasini o'z vaqtida kestirish (4-5 yoshdan kechiktirmasdan, chunki aynan mana shu yoshda bolaning nutqida til yuganchasining kaltaligi xalal beruvchi tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasi shakllanadi);

- ovoz apparatini shamollashdan, chang tushishidan va zo'riqishdan (juda baland baqirish, baland va zo'riqib gapirish vah.k.) saqlash;

- bolaning asab tizimini asrash (baqirib chaqirish, qo'rqinchli hikoyalar so'zlab berish va turlicha qo'rqitishlarni oldini olish, bolaga nisbatan uning har qanday kasalligi vaqtida va kasallik tugagach ham bir qancha vaqt davomida ehtiyotkorona yondoshuv va h.k.). profilaktikaning bu turi har qanday nevrologik nutq buzilishlari va ayniqsa – duduqlanishni oldini olishda muhim hisoblanadi.

1. Bolaga quyidagilardan iborat bo'lgan to'g'ri nutqiy rivojlanishni ta'minlovchi ijtimoiy-xo'jalik sharoitlarini yaratib berish:

- bolaga taqlid qilish uchun namunasi sifatida muhim bo'lgan (bola atrofidagi kishilarda nutqiy nuqson bo'lmagani xolatida) to'g'ri nutqiy muhitni yaratish;

- bola quvonganini tovush va mimika yordamida ifodalashini rag'batlantirish;

- atrofdagilar nutqini bolaning idrokiga yo'naltirilishi, buning uchun esa bola bilan uning ilk kunlaridan boshlab ko'proq gaplashish kerak;

- kattalar tomonidan aniq hayotiy vaziyatlar, atrofdagi predmetlar va ular bilan amalga oshiriluvchi harakatlar bilan bog'liq bo'lgan sodda so'zlarni shoshmasdan va aniq qilib talaffuz etilishi, bu esa o'z navbatida bolaning nutqni o'zlashtirishni boshlashiga olib keladi;

- bola tomonidan noto'g'ri talaffuz etilgan so'zlarni kattalar tomonidan aniq talaffuz etilishi, bolaning talaffuzini asta-sekinlik bilan to'g'rilab borish;

- suhbat vaqtida suhbatdoshning artikulyatsiyasini ko'rib turib idrok etish nutqni yanada tezroq o'zlashtirilishini ta'minlaganligi sababli bolani suhbatdoshining yuziga qarab so'zlashishga o'rgatish;

- bola o'z istaklarini va iltimoslarini og'zaki bayon etishini talab etuvchi vaziyatlarni tizimli ravishda yaratib borish (kattalar bolani "yarim gapidan yoki

tugallanmagan so'zlaridan tushunishlari"ni va ayniqsa o'z fikrini harakatlar va qarashlar – nigohning o'zi bilan ifodalashni odat tusiga kirishini oldini olishlari kerak). Bolaning hayotini shunday tashkillashtirish kerakki, vaziyatning o'zi bolada nutqiy muloqotga kirishish ehtiyojini yaratsin, masalan, hayvonlar va o'yinchoqlar bilan "gaplashish" va h.k.

- Bolani to'g'ri nutqga taqlid qilish imkoniyatidan mahrum etuvchi erkalab u bilan noto'g'ri gaplashish xolatlaridan voz kechish;

- ritmika, musiqa va qo'shiq kuylash bilan shug'ullanish, to'g'ri nafasning va kuchli, o'zgaruvchan ovozning rivojlanishini ta'minlaydi, shuningdek noaniq nutqni oldini oladi; nutqni to'liq egallashda muhim hisoblangan mayda qo'l motorikasini rivojlantirish (L.G.Paramonova).

L.G.Paramonova disgrafiyani erta profilaktika qilish choralari yozuv jarayonini normal o'zlashtirishda yetarlicha shakllangan bo'lishi kerak bo'lgan psixik funksiyalarning: differentsiallashtirilgan eshituv idrokining rivojlanganligi; tovushlarni eshitish orqali farqlashning rivojlanganligi; fazoviy tasavvurlarning va ko'rib turib analiz va sintez qilishning rivojlanganligi; lug'at boyligini boyitish va nutqning grammatik tuzilishini to'g'ri shakllanishini ta'minlanishi; fonematik analiz va sintezning (katta maktabgacha yosh davrida) rivojlanganligi maqsadli ravishda rivojlantirilishini kiritadi.

Umumiy qilib olganda nutqiy nutqonlarni profilaktikasi ham har qanday kasallik va patologik xolatlarning profilaktikasi singari nuqsonni vujudga kelish sabablarini bola hayotidan olib tashlash asosida quriladi. Afsuski, ayrim xolatlarda nutqiy buzilishlarni vujudga kelishini to'liq oldini olib bo'lmaydi, va aynan mana shunday vaziyatlarda profilaktikaning vazifasi zararli ta'sir etgan omillarning yoqimsiz natijalarini iloji boricha yumshatish va mavjud nuqsonlar asosida ikkilamchi, uchlamchi nutqiy nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olishdan iborat bo'ladi.

Disgrafiyaga aloqador bo'lgan asosiy etiologik omillarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan dastlabki **birlamchi profilaktika** ishlarida, quyidagi tadbirlarni o'tkazish mumkin:

- 1) Xomila va chaqaloqda ante- va perinatal patologiyalarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar: bo'lajak onalar va xomiladorlarning sog'lig'ini saqlash, xomiladorlikni kuzatib borishni optimal ravishda tashkillashtirish va xomilada vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldini olish, tug'ruq vaqtidagi jarohatlarni, xomila va chaqaloqning infeksiyalarga chalinishini oldini olish va h.k.
- 2) Bolalarda hayotining birinchi yilida somatik va infeksiyon kasalliklarni oldini olish va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar.
- 3) Perinatal tserebral patologiyalarni erta tashxis qilish va o'z vaqtida davolash.
- 4) Bolalarda nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarni erta tashxis qilish va korrektsiyalash. Normal nutqiy rivojlanishning ayrim bosqichlarini boshlanish vaqtini bilish juda muhim hisoblanadi. Ilk so'zlarning (1 yoshu 3 oylikdan) yoki jummalarning (2 yoshdan) keyin namoyon bo'lishi logopedning aralashuvi uchun yetarli asos bo'la olmaydi.
- 5) Bolada ikki tillilik kuzatilganda savodga o'rgatishning to'g'ri usulini tanlash zarur bo'ladi.
- 6) Oilasi yaxshi bo'lmagan oilalar va bolalari maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnamaydigan oilalar bilan ishlash: ota-onalarga farzandlarini maktab ta'limiga tayyorlash usullarini, ularga zaruriy bo'lgan sensomotor va nutqiy jihatdan rivojlantirish usullarini o'rgatuvchi ota-onalar "maktablarini" tashkillashtirish.

Disgrafiyaning **ikkilamchi profilaktikasi** quyidagi tadbirlarni bajarilishi jarayonida amalga oshadi:

- 1) Nuqson namoyon bo'lishi ehtimol qilinayotgan bolalar guruhini o'z vaqtida aniqlash (eng samarali vaqti maktab ta'limidan avval) va ushbu disgrafiya vujudga kelish ehtimoli juda yuqori bo'lgan bolalar bilan korreksion-profilaktik ishlarni olib borish.
- 2) Fonetiko-fonematik nuqsonlarni to'g'rilash.
- 3) Yozuvning funktsional bazasini shakllantirish, ayniqsa:
 - savodga o'rganish uchun muhim bo'lgan nutqiy ko'nikma va funktsiyalarni rivojlantirish (nutqiy tovushlarni anglashni, eshituv diqqatini rag'batlantirish,

fonematik idrokni rivojlantirib borish va to'g'ri fonematik tasavvurlarni tarbiyalash, fonematik analiz va sintez ko'nikmalarini shakllantirish);

- fazoviy idrok etishni va ko'rgazma-obrazli tafakkurni rivojlantirish (pertseptiv va qurish-yasash topshiriqlarini bajarishda fazoda mo'ljal olish jarayonini amalda qo'llash; sensor etalonlarni qo'llash va ularga mos bo'lgan og'zaki tushunchalarni o'zlashtirish; fikran boshqa joyga ko'chish va ko'ruv obrazlarining transformatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish; fazoviy tasavvurlarni tizimli ravishda tasvirlash ko'nikmasini shakllantirish);

- tasviriy-grafik qobiliyatlarni shakllantirish (shtrixlash, ustidan chizib chiqish, geometrik shakllarni tushirish, tugallanmagan rasm va yetishmaydigan qismlari rasmlarni yakunlab chizish, shablon bo'yicha harf va so'zlarni yozish va boshqalar.);

- suksessiv qobiliyatlarni rivojlantirish (xodisalarni eslab qolish va vaqt bo'yicha ketma-ketligini o'rnatish, analiz qilish qobiliyatini rivojlantirishni mashq qilish);

- diqqatni taqsimlash va ko'chirishni, uning me'yorda sarflash qobiliyatini rivojlantirish (korreksion ishlarda ham eshituv, ham ko'ruv obrazlariga qaratilgan mashqlar qo'llaniladi; diqqatni ixtiyoriy boshqarishni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi).

4) Nuqson namoyon bo'lishi ehtimol qilinayotgan bolalar guruhi bolaning kognitiv usuliga mos ravishda yozuvga o'rgatish tempi va metodlarini individuallashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Qayd etib o'tish kerakki, disgrafiyaning profilaktikasini samarali amalga oshirishga tayyor bo'lgan mutaxassislar bolalar logopedlari bo'lib, ularning asosiy vazifalari ilk va kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlari va uning orqada qolishini, nutq nuqsonlarini oldini olish, nutqiy rivojlanishni, nutqiy va tilga bo'lgan qobiliyatlarini yanada oshirish, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv va o'qishdagi nuqsonlarni profilaktikasi hisoblanadi.

Dizartrik bolalar bilan ishlash faqatgina bolada nutqiy vositalar "asbobi" va ularni nutqda qo'llashni rivojlantirishni ko'zda tutmaydi, balki, bu ishlar bolaning nutqiy hulqi va nutqiy-fikriy faoliyatning vazifalari va sifatini belgilab beruvchi psixikasini, diqqati, xotirasi, intellekti, hissiy-irodaviy sohalarini, har tomonlama

rivojlantirilishi, shuningdek nutqiy va intellektual rivojlanishning yangi sifat darajasiga – yozma nutqni o'zlashtirishga o'tishni ham qamrab oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borayotgan logoped albatta bolalarning qo'l harakatlari va grafomotor ko'nikmalari rivojlanishiga, ularda nutqiy analiz va sintez ko'nikmalarining shakllanganligiga e'tibor qaratadi. Ko'pgina xolatlarda, logopedik guruhga qatnash vaqtida bolalar og'zaki nutqni harflar yordamida belgilash ko'nikmalarini o'zlashtirib oladilar.

Boshqacha qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi Dizartrik bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan logopedik ishlarni amalga oshirish disgrafiyani oldini olish uchun barcha tomondan ta'sir etishni nazarda tutadi. Bunda logopedik ishlar qanchalik erta boshlanganiga ko'ra samaradorligi belgilanadi, chunki, bolalarning yoshi ortib borgani sari bola xolatini o'zgartirish va nuqsonni kompensatsiyalash imkoniyatlari kamayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda disgrafiyani profilaktika qilish ishlarida bazaviy yo'nalishlarni ajratib olish mumkin bo'lib, mana shu yo'nalishlar bo'yicha kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlash parallel ravishda va oldindan tashxis ishlarini amalga oshirmasdan turib ham bajariladi. O'rta va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriluvchi profilaktik ta'sirlar tashxis asosida, tanlab olib amalga oshirilishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan disgrafiyani oldini olish bo'yicha olib boriluvchi ishlarda quyidagi yo'nalishlarni ajratish mumkin bo'ladi:

1.Sensor funktsiyalar va psixomotorikani rivojlantirish (ko'rish va eshitish idrokni, ko'ruv va eshituv farqlarni; fazoviy tasavvurlarni; harakatlarni kinetik va kinestetik tashkillashtirishni, qurish-yasash jarayonini, shartli-harakat reaksiyalarini va grafotasviriy qobiliyatlarni).

2.Analizadorlararo o'zaro ta'sirlarni, suksessiv funktsiyalarni rivojlantirish (eshituv-harakat, ko'ruv-harakat, eshitish-ko'rishning bog'liqligini; stimulyar harakat va simvollarni eslab qolish, ularni fazoviy va vaqtga doir ketma-ketligini amalga oshirish qobiliyati).

3.Psixik funktsiyalarni rivojlantirish (ko'ruv va eshituv diqqati va xotirasi).

4. Intelektual faoliyatni rivojlantirish (tafakkur operatsiyalari: taqqoslash, ketma-ketligini o'rnatish, moslashtirish, tasniflash, belgilash, analiz va sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish; faoliyatni va o'z-o'zini boshqarishni va faoliyatni mustaqil korrektsiyalashni rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish; o'quv faoliyati motivlarini tarbiyalash).

5. Nutqni rivojlantirish va til birliklarini ixtiyoriy analiz va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirish (bog'langan monologik nutqni, fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish; nutqning leksiko-grammatik va fonetik jihatdan shakllantirishni yanada rivojlantirish).

Mana shu yo'nalishlar bo'yicha o'rta va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi disgrafiya vujudga kelishiga moyilligi bo'lgan bolalarni tashxis qilish mumkin. Tabiiyki, har bir yosh davrini tashxis qilish uchun mos bo'lgan topshiriqlari tanlash kerak bo'ladi (E.A. Loginova,).

Disgrafiyaning oldini olish masalasiga alohida e'tibor berish kerak, chunki ushbu muammoni hal etishda profilaktika ishlarini amalga oshirish eng asosiy yo'l bo'lishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshining o'zidayoq bir qator belgilar bo'yicha qaysi bolaga keyinchalik disgrafiya paydo bo'lish ehtimoli "havf solayotgani"ni oldindan ayta olish mumkin bo'ladi.

Profilaktika ishlarining asosiy vazifalarini xal etish uchun bolaning atrofidagi ijtimoiy muhit "rivojlantiruvchi" bo'lishi talab etiladi, ya'ni bunday muhit bolaga yetarli darajadagi ko'ruv va eshituv taassurotlarini bera olishi, unda bolaning diqqatini jalb etuvchi va e'tiborni o'zida ushlab tura olishga doir, bolaning bilish va fikrlash faoliyatini stimullovchi ob'ektlar mavjud bo'lishi kerak. Bunda sinchiklab tanlangan "rivojlantiruvchi" o'yinchoqlar va keyinchalik esa o'yinlar ham katta yordam berishi mumkin. Va shak-shubhasiz, bu borada atrofdagi kattalarning bola bilan nutqsiz muloqotga kirishish davridan boshlab amalga oshirilishi lozim bo'lgan ijobiy hissiy muloqot o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Keyinchalik esa bunday muloqot kelajakdagi ta'lim jarayoni va yozma nutqni o'zlashtirish uchun muhim bo'lgan bolaning psixik funksiyalari – uning diqqati, xotirasi, fikrlash faoliyati, hissiy-irodaviy doirasi va boshqalarning to'g'ri rivojlanishiga

“yo’naltiruvchi” xarakterga ega bo’lishi kerak. Ushbu dastlabki davrda alohida e’tiborni bolaning og’zaki nutqini to’liq rivojlanishiga qaratish kerak, chunki aynan og’zaki nutq asosida keyinchalik yozma nutq shakllanib boradi.

Xulosa

Bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim tizimiga erta jalb qilish natijasida ular nutq ,mulokot turlari va amaliy faoliyat shakllarini ertaroq egallash imkoniyatiga ega bulishlari isbotlangan xakikatdir.

Dizartriya bu ogir nutq buzilishlaridan biri bo’lib,uning asosiy belgilari nutqiy artikulyatsiya motorikasi nutqiy nafas bilan boglik bo’lgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuksonlaridir.

Dizartriyada artikulyatsiya mushaklarining xarakatchanligining yetarli emasligi natijasida tovushlar talaffuzida kamchiliklar kelib chikadi.Bundan tashkari bunday bolalarda umumiy va mayda ko’l motorikasida xam kamchiliklar kuzatiladi.

Dizartrik bolalardagi bu kamchiliklarni erta aniklash va korreksion pedagogik ishlarni o’z vaktida olib borilishi ularda namoyon bo’lishi mumkin bo’lgan disgrafiyani ya’ni yozuv buzilishlarini oldini olishga imkon yaratgan bo’lar edi.

Disgrafiya – bu yozuv jarayonining kisman o’ziga xos buzilishi bo’lib,u nutq faoliyatining murakkab shaklini, ko’p mikdorli operatsiyalarni o’z ichiga oladi.Yozuv ogzaki nutq jarayoni bilan chambarchas boglik bo’lib,yukori darajali rivojlanish asosida amalga oshadi.

Yozma nutq og’zaki nutq asosida shakllanadi va unga nisbatan nutqiy taraqqiyotning yuqoriroq darajasini tashkil etadi. So’zlarni to’g’ri va aniq talaffuz qilish to’g’ri yozishning eng muxim asosidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi dizartrik bolalarda disgrafiyani oldini olish bo’yicha olib boriluvchi ishlarda quyidagi vazifalarni ajratib kursatdik.

- 1.Sensor funktsiyalar va psixomotorikani rivojlantirish
- 2.Analizatorlararo o'zaro ta'sirlarni, suksessiv funktsiyalarni rivojlantirish
- 3.Psixik funktsiyalarni rivojlantirish
- 4.Intelektual faoliyatni rivojlantirish

5.Nutqni rivojlantirish va til birliklarini ixtiyoriy analiz va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirish

Disgrafiyaning oldini olish masalasiga alohida e'tibor berish kerak, chunki ushbu muammoni hal etishda profilaktika ishlarini amalga oshirish eng asosiy yo'l bo'lishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshining o'zidayoq bir qator belgilar bo'yicha qaysi bolaga keyinchalik disgrafiya paydo bo'lish ehtimoli "havf solayotgani"ni oldindan ayta olish mumkin bo'ladi.

Sanab o'tilgan korreksion-rivojlantiruvchi va ta'lim beruvchi texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini o'zining to'liq ekanligi bilan belgilovchi bolaning oliy psixik funktsiyalar orasidagi ta'sirlarni shakllantirish va yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondoshuv yotadi. Psixologik va neyropsixologik tashxis va korreksion metodikalarini bilish logopedga maktabgacha tarbiya yoshidagi dizartrik bolalar bilan olib boriladigan disgrafiyaning oldini olish bo'yicha shaxsiy ishlari tizimini ishlab chiqishda amaliy yordam berishi mumkin.

Shunday qilib biz uz magistrlik dissertatsiyamizda dizartrik bolalarda yozma nutq buzilishlarini uziga xos jixatlarini, uni bolalar tomonidan uzlashtirilish jarayonining xususiyatlarini, mazkur guruh bolalari yozma nutq nuqsonlarini maktabgacha yoshda bartaraf etish yo'llari buyicha metodik tavsiyalar berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari va dasturlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O'zbekiston” 1992
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T.: “O'zbekiston” 2017
5. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz” – T.: “O'zbekiston” 2017
6. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” – T.: “O'zbekiston” 2017

III. Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupova.M.Yu “Logopediya” Toshkent 2007
2. Ayupova.M.Yu “Korreksion ishlar metodikasi” Ma'ruza matni .T-2001
3. Arxipova Ye.F. “Sertaya dizartriya u detey” moskva 2013.

4. Axutina T.V, Zoltareva.E.V «O zriteono-prostranstvennots disgrafii: neyropsixologicheskiy anliz i metod yee korrektsii» shkoli zlorovya 1997 s 38-42
5. Axutina T.V. Neyropsixologiya individualnx razlichiy derey kak osnova ispolzovaniya neyropsixologicheskix metodov v shkole.// Mejdunarodnaya konferentsiya pamyati L.R. Luriya: M-1998.
6. Arxipova Ye.F. Styortaya dizartriya u detey Uchebnoe posobie M: AST AstrelXranitel, 2013.
7. Badalyan L.O Detskaya nevronatologiya. M-1985
8. .Bekker.K.P, Sovak. M Logopediya Moskva Prosveshenie 1981
9. Bekker K.P., Sovak M. Logopediya. - M, 1981
10. Belova-david Narushenie rechi u doshkolnikov M Vlados 2001
11. Bezrukix M.M., Yefimova SP. Uprajneniya dlya zanyatiy s detmi, imeyushimi trudnosti pri obuchenii pismu. — M.: Auris, Aysberg, 1991.
12. Vizel T.G Osnov neyropsixologii» Moskva 2013.
13. Vinarskaya Ye.N. “Dizartriya” Moskva: 2014
14. Vinarskaya Ye.N, Po’latov A.M. Dizartriya i yeyo toniko-diagnosticheskoe znachenie v klinike ochagovx porajenie mozga .Toshkent 1983.
15. Vinarskaya Ye.N. Rannee rechevoe razvitie rebyonka i problem defektologii M.; Prosveshenie, 1987
16. Vgotskiy L.S Voobrajenie i tvorchestvo i detskom vozraste.- Sib Soyuz, 1997.
17. Vasileva KN., Novotortseva N.V. Razvivayumie igr dlya doshkolnikov. - Yaroslavl: Akademiya razvitiya, 1996.
18. Vgotskiy L.S Mshlenie i rech. M. Vlados. 2000
19. Vgotskiy L.S Osnov defektologii pedagogika 1983
20. Vgotskiy L.S Problem defektologii .- Moskva: Pro 1995 g
21. Defektologiya. Slovar-spravochnik / Avt.-sost. S. S. Stepanov. Pod red. B. P. Puzanova. — M., 1996
22. Danilova A.A Recheve i psixicheskie narusheniya u «malogramotnx» detey// 1999

23. Jukova I.S, Mastyukova Ye.M, Filicheva T.B, Preodolenie obshchego nedorozvitiya rechi u doskolnikov, -Ekaterinburg : Izd- vo ARD LTD 1998
24. Jinkin N.I Mexanizm rechi ,M, Vldos, 2001
25. Jukova O.S “Razvitiya i obucheniya doskolnika” Moskva-2013
26. Inshakova. O.B “Razvitie i korrektsiya grafo-motornx navkov u detey 5-7 let” chast-1 Moskva Vldos 2003
27. Ili Rezinika “Gotovim ruk k pismu” Moskva delta 2004
28. Internet ma'lumotlari
29. Wikipedia.ru Rusmedserver.ru.:
30. Student.km.ru.
31. Ugorka.ivakorin.ru.:
32. New-clinica.ru.
33. Ivanenko S.F Formirovanie vospriyatie rechi u detey s tyajjolmi narusheniyami proiznosheniya.-M: 1984
34. Ippolitova M.V, Babenkova R.D, Mastyukova Ye.M Vospitanie detey s tserebralnmi paralichom v seme (posobie)
35. Narusheniya golosa i zvukoproiznositelnoy storon rechi L.S Volkovoy M-2003
36. Nastolnaya kniga pedagoga-defektologa T. B. Yepifantseva .Feniks, 2007.
37. “Narusheniya pismennoy rechi” Pod red prof.L.S.Volkovoy, R.I.Lalaeva M-2003.
38. Nurkeldieva B.A, Ayupova M.Yu, Axmedova Z.M «Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar» Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007
39. Nastolnaya kniga pedagoga-defektologa T. B. Yepifantseva i dr. Rostov n/D: Feniks, 2007.
40. Novotortseva N.V. Metodika razvitiya rechi u negovoryayuchix detey:. - Yaroslavl: Izd-vo YaGPU, 1999.
41. Korrektsiya pismennoy rechi u shkolnikov / 3. Bekshieva. — Rostov n/D : Feniks, 2009.
42. Kornev A.N. “Narusheniya chteniya i pisma u detey”. uchebno-metdicheskaya posobie. 1997.

43. Lopuxina .I.S. Logopediya .-M.: Akvarium, 1995.
44. Lalaeva. A.A. Korrektsiya obshego nedorozvitie rechi u doshkolnikov. M.; 1999
45. Lvov .M.R. Metodika razitiya rechi mladshix shkolnikov.-M.: Prosveshenie 1985
46. Logopediya // red L.S, Volkova, S.N, SHaxovskaya.-M. VLADOS, 1998
47. Logopediya // pod red L.S, Volkova, S.N, SHaxovskaya.-M. 2003.
48. Lyapidevskiy S.S Nevropatologiya M, Vlados. 2001
49. Luriya. A.R «Osnov neyropsixologii» M-1973
50. Luriya A.R Ocherki psixofiziologii pisma M-1950
51. Logopediya. // Pod red. L. S. Volkovoy, S. N. SHaxovskoy. M., 2002.
52. Lalaeva R.I Narushenie pismennoy rechi /Logopediya/ pod red L.S.Volkovoy M:1989 s345-382
53. “Logopediya “S.N.SHaxovskoy, T.V.Volosovets M-2003
54. Lopatina L. V., Serebryakova N. V. Logopedicheskaya rabota v gruppax doshkolnikov so stertoy formoy dizartrii. — SPb., 1994.
55. Lalaeva R. I., Benediktova L. V. Diagnostika i korrektsiya narusheniy chteniya i pisma u mladshix shkolnikov. SPb, 2001.
56. *Logopediya: Ucheb. dlya stud. defektol. fak-tov. ped. vuzov / Pod red. L. S. Volkovoy, S. N. SHaxovskoy. - M., 1998.*
57. “Logopediya” Pod red prof.L.S.Volkovoy, SHaxovskoy S.N. M-1998
58. Loginova Ye.A. Narusheniya pisma. Uchebnoe posobie / Pod red. L. S. Volkovoy. — SPb.: «DETSTVO-PRESS», 2004
59. Mo’minova L.R, Ayupova M.Yu “Logopediya” T.o’qituvchi 1993y.
60. Milostivenko L.G. Metodicheskie rekomendatsii po preduprezhdeniya oshibok chteniya i pisma u detey: — Sankt-Peterburg, 1995.
61. Mostyukova .E.M, Ippolitova M.V Narusheniya rechi u detey tserebralnm paralichom M-1985
62. Mastyukova Ye.M Lechebnaya pedagogika .M-Vladov, 1997

63. Maxmudova N.M, Moskovkina A.G, Semeynoe vospitanie detey s otkloneniyami v razvitii.-M:Vlados,2004.
64. Miranova S.A Razvitie rechi doshkolnikov na logopedicheskix zanyatiyax.-M,Prosveshenie,1991
65. Mo'minova L.R ,Ayupova M.Yu «Logopediya» T.O'qituvchi 1993
66. Sadovnikova I.N.Narushenie pismennoy rechi i ix reodolenie u mladshix shkolnikov M 1995
67. Sovremenne podxod k diagnostike i korrektsii rechevx rasstroystv.Sank Pet.2001 .N.N.Traugott.otv.redaktor M.G.Xrakovskaya
68. Paramonova.L.G Disgrafiya: diagnostika,profilaktika,korreksiya.-San.Pet 2013
69. Povalyaeva M.A Spravochnik logopeda.M-2002
70. Priuypova I. V. Simptomatika dizorfografii u mladshix shkolnikov, stradayushix narusheniyami pismennoy rechi // Innovatsii v obrazovanii i sotsialne peremen. — SPb., 1993. CH. II.
71. Priuypova I. V. Logopedicheskaya rabota po korrektsii dizorfografii u mladshix shkolnikov s nerezko vrajenm obshim nedorazvitiem rechi // Diagnostika, profilaktika i korrektsiya narusheniy razvitiya detey s ogranichenmi vozmojnostyami zdorovya. — SPb., 1999.
72. Pedagogika. //Pod red. P. I. Pidkasisstogo. M., 2002.
73. Povalyaeva M. A.Spravochnik logopeda - Rostov-na-Donu: «Feniks», 2002.
74. Ponyatiyno-terminologicheskij slovar logopeda / Pod P56 red. V. I. Seliverstova. — M.: Gumanitarny izdatelskiy tsentr VLADOS, 1997. — 400 s. 15V1CH[5-691-00044-6.
75. Rebenok s otkloneniyami v razvitii: rannyya diagnostika i korrektsiya.-M: Prosveshenie, 1992
76. Xrakovskaya M.G «Sovremenne podxod k diagnostike rechevx rasstroystv» Sank-Peterburg 2001

77. Xudenko Ye.D. Prakticheskoe posobie po razvitiyu rechi: V2ch.-M., 1994
78. Xrestomatiya po logopedii Pod red. L. S. Volkovoy i V. I. Seliverstova. — M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 1997.
79. Xrestomatiya po logopedii: uchebnoe posobie dlya studentov vshix i srednxspetsialnx pedagogicheskix zavedeniy V2tt pod red L.S.Volkovoy i V.I Seleverstova M-1997
80. SHomaxmudova R.SH, Mo'minova L.R “Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish” O'qituvchi Toshkent 1993yil
81. SHodieva Q «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish» o'qituvchi Toshkent 1995
82. SHomaxmudova R.SH, Mo'minova L.R «Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish» O'qituvchi T-1994 y
83. SHomaxmudova R.SH, Tulaganova D “Maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korrektsion pedagogik ishlar” T-2011
84. SHomaxmudova R.SH, Tulaganova D “Korreksion pedagogicheskaya rabota s detmi DTSP doshkolnogo vozrasta” T-2009
85. Filicheva T.B, CHEveleva N.A, CHirkina G,V “Osnov logopedii ”M-Prosveshenie 1999
86. Filicheva T.B, CHirkina G.V Korrektsionnogo obuchenie i vospitanie detey 5-letnogo vozrasta s obshim nedorazvitiem rechi .M-1991
87. Filicheva T.E Deti s obshim nedorazvitiem rechi. Vospitanie i obuchenie / T.E Filicheva, T.V Tumanov. Moskva: Gnom-Press -1999
88. TSvetkova L.S Vosstanovitelnie obuchenie pri lokalnx porajeniyax mozga ,M-Pedagogika 1972
89. Eydinova M.B, Pravdina-Vinarskaya Ye.N Detskie tserebralne paralichi i puti ix preodoleniya ,M Vlados 1999
90. Sadovnikova I. N. Narusheniya pismennoy rechi i ix preodolenie u mladshix shkolknikov. M., 1995.